

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

МАГИСТРАТУРА БЎЛИМИ

*Қўлёзма ҳуқуқида
УДК:336.1*

НАВРИЗБАЕВ АЛИАКБАР РУСТАМОВИЧ

**ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИНИНГ МОҲИЯТИ ВА
ҲОЗИРГИ ЗАМОН МУАММОЛАРИ**

Мутахасислик: 5A231301-«Пенсия иши»

Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган

ДИССЕРТАЦИЯ

Илмий раҳбар:

и.ф.н, доц. Э.Каримова

ТОШКЕНТ-2015

Диссертация Тошкент молия институти “Пенсия иши” кафедрасида бажарилган.

Илмий раҳбар:

и.ф.н, доц. З.Каримова

Ички тақризчи:

и.ф.н, доц. И.Бакиева

Ташқи тақризчи:

**Пенсия жағармаси Тошкент шаҳар бошқармаси
бошлиғи**

Д.Зуфаров

“Пенсия иши” кафедраси мудири:

и.ф.н.,доц. А.Ботиров

Магистратура бўлими бошлиғи

и.ф.н., доцент У.Ортиқов

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB Pensiya ta`minoti tizimining nazariy-huquqiy asoslari va o`ziga xos xususiyatlari.....	6
1.1. Pensiya ta`minoti tizimining shakllanishi va aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlashdagi ahamiyati.....	6
1.2. Pensiya ta`minoti tizimining me`yoriy-huquqiy asoslari.....	17
1.3. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta`minoti tajribalari.....	27
I bob bo`yicha xulosa	37
II BOB O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA Pensiya ta`minoti tizimining amaldagi holati tahlili.....	39
2.1. Avlodlar birdamligi prinsipiga asoslangan pensiya ta`minoti tizimi tahlili.....	39
2.2. Fuqarolarning jamg`arilib boriladigan pensiya ta`minoti tizimi tahlili.....	51
2.3. O`zbekistonda pensiya ta`minoti tizimining o`ziga xos xususiyatlari tahlili.....	
II bob bo`yicha xulosa	64
III BOB O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA Pensiya ta`minoti tizimini takomillashtirish masalalari.....	67
3.1. Pensiya ta`minoti tizimidagi muammolar va ularni hal etish yo`llari.....	67
3.2. Pensiya ta`minoti tizimining taraqqiyot istiqbollari.....	71
III bob bo`yicha xulosa.....	75
XULOSA	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	79
ILOVALAR.....	83

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning kuchli taraflaridan biri uning ijtimoiy yo`naltirilganida. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab hukumatimiz islohatlarni asosan ijtimoiy sohaga qaratib, shu yo`ldan o`zgarmasdan bormoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maruzasida ham uchbu chora-tadbirlarlarga muhim ustuvor yo`nalish sifatida o`z aksini topgan: "Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog`liq masalalar bundan buyon ham e`tiborimiz markazida bo`lib qoladi. 2016-yilda ijtimoiy sohaga Davlat budjeti jami xarajatlarining 59,1 foizi yoki o`tgan yilga nisbatan ko`proq mablag` ajratiladi. O`tkan 2015-yilda ish haqi, stipendiyalar va aynan pensiyalar 21,9 foizga oshirildi"<sup>1</sup>, bundan anglashiladiki, davlatning eng dolzarb vazifa va funksiyalarining oldingi o`rinlarida ijtimoiy soha hisoblanadi. Yana shuni ta`kidlab o`tish kerakki, 2016-yilga mo`ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar va budjet parametrlarida jamlangan budjet xarajatlari tarkibida budjetadan tashqari pensiya jamg`armasi xarajatlari ulushi, 26,37 foizni<sup>2</sup> tashkil etishi prognoz qilinganligi mamlakatda ijtimoiy ta`minot tizimiga katta e`tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

O`zbekistonda aholining yuqori turmush darajasini ta`minlash va kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirishga asoslangan demokratik ja`miyat qurish singari maqsadli vazifa qo`yilar ekan, bunda davlat maqsadli jamg`armalarining, asosan budjetdan tashqari pensiya jamg`armasining hozirgi va kelajakdagi rivojlanishining o`zgachaliklarin hisobga olmaslikning iloji yo`q. O`zbekistonda pensiya ta`minoti aholini ijtimoiy himoya qilish tizimsining asosiy tarkiblik qismlaridan biri, sababi u deyarli hamma fuqarolarning umirlik huquqlari bilan bog`luq ekan, fuqarolar mehnat qobiliyatini yo`qotganda shu tizim orqali ijtimoiy himoyalanadi.

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruzasi.

² O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda №2455 sonli Qarori ma`lumoti.

O'zbekiston dunyo aholisi muayyam o'suvchi davlatlar qatoriga kiradi. Respublika aholisining tarkibida yoshlar katta qismini egallashiga qaramasdan, keksalar soni bir tempda saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarida aholining o'rtacha umir ko'rish darajasi yanada yaxshilanib, o'sish tendentsiyaga ega bo'lmoqda. Shu sharoyitta o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta masalalarini taqqoslaganda itiborni ko'proq berib, shundan pensiya tizimiga bog'liq masalalar alohida ijtimoiy iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, davlatimizda pensiya tizimsina ijtimoiy siyosatning yuqori ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Rivojlangan davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni pensiya yoshida kambag'allikdan himoyalash muhim o'rin egallaydi va ushbu tizimni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishni talab etadi. Shu bilan birga bugungi kunda pensiya ta'minotidagi muammolar hatto rivojlangan davlatlarda ham ko'zga tashlanmogda.

Yuqoridagi holatlar mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini tadqiq etish va uning taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'zbekiston Respublikasi budjettan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyati tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyoti jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishining bosh maqsadi O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarning bajarilishiga asoslanadi:

– O'zbekiston Respublikasidagi pensiya tizimi rivojlanishining nazariy asoslarini tadqiq qilish va unga xos xususiyatlarni aniqlash;

- pensiya tizimini rivojlantirish bo'yicha taraqqiy etgan mamlakatlar ilg'or tajriyasini o'rganish va uni mamlakatimiz iqtisodiyotida ijodiy qo'llash yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqish;
- respublikamizda joriy pensiya tizimini rivojlantirish bosqichlarini tadqiq etish;
- mamlakatimizda mavjud pensiya tizimining amal qilish mexanizmini tahlil qilish;
- O'zbekistonda joriy pensiya tizimini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslash;
- mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiyalar berish;
- O'zbekistonda pensiya tizimini istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati asoslangan;
- pensiya tizimi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribalaridan O'zbekistonda ijodiy foydalanish imkoniyatlari asolab berilgan;
- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotiga xos tendentsiyalar aniqlangan;
- O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimining taraqqiyot bosqichlari tasniflangan va tavsiflangan;
- mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan;
- avlodlar birdamligi printsipligiga asoslangan hamda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimiga xos tendentsiyalar aniqlangan;
- pensiya ta'minoti tizimidagi o'ziga xos muammolar aniqlangan va ularning echimiga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

– O`zbekiston Respublikasida pensiya ta`minoti tizimi taraqqiyotini ta`minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo`llanilishi O`zbekiston Respublikasida pensiya ta`minoti tizimi taraqqiyotini ta`minlash imkonini beradi.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** Pensiya tizimini rivojlantirish yo`nalishlari xorijlik iqtisodchi-olimlar Palmer, J.Stiglits, M.Boskina, G.Konrada, B.Fridmana, D.Lindemana, I.P.Devis ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Milliy pensiya tizimi, pensiya ta`minoti O`zbekistonlik olimlardan A.Vaxabov, R.T.Dalimov, B.X.Umirzakov, N.M.Majidov, Sh.Allayorov, D.Toshmuxammedova va boshqalar tomondan o`rganilgan.

Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida dinamik, qiyosiy, deduktik, mantiqiy, analitik, sintetik va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqotdagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarda O`zbekiston Respublikasi pensiya tizimini yanada rivojlantirish, Pensiya jamg`armasining to`lov qobiliyatini yaxshilash va mablag`larini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o`quv yurtlarida pensiya ishiga oid fanlarning o`quv dasturlarini takomillashtirishda va o`qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan va ilovalardan iborat bo`lib, jami 94 betni tashkil qiladi. Tadqiqot ishida 12 ta jadval va 13 ta rasm va 3 ta ilova keltirilgan.

I BOB. PENSIYA TA`MINOTI TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Pensiya ta`minoti tizimining shakllanishi va aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlashdagi ahamiyati

Pensiya bu fuqarolarning qonunchilikda belgilangan pensiya yoshiga yetganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo`qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo`lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va normalar asosida beriladigan har oylik to`lovlar, pensiya ta`minoti esa ushbu to`lovlarnimaxsus pensiya jamg`armalari mablag`lari hisobidan fuqarolargato`lanishining ta`minlanishidir<sup>3</sup>. Ya`ni pensiya aholini iqtisodiy ijtimoiy xavfsizligini ta`minlashning asosi hisoblanadi.

Pensiya tizimi – ijimoiy, iqtisodiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi organizm bo`lib, u ja`miyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo`ljallangan. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi dissertatsiyaning 1- ilovasidan ko`rish mumkin.

1834 yilga kelib hozirgi pensiya holatini ta`minlagan Buyuk Britaniyada qaror qabul qilingan. Bu qaror bo`yicha 45 yillik harbiy mehnat staji mavjud 65 yoshli aholiga ishlagan davridagioylik ish haqining uchdan ikki qismiga teng bo`lganpullar berilaboshlangan. 1859 yilga kelib pensiya olish yoshi 60 yoshga tushirildi va bundagi harbiy mehnat staji holati 40 yilni tashkil etdi.

AQSHda 1857 yilga kelib, ilk marotaba Nyu York politsiya ishchilari uchun hayotlarini va nogironlikni sug`urtalash uchun munitsipal pensiya fondi tashkil etilgan. 1857 yilda bo`lsa, AQSHning “American Express” kompaniyasi tomonidan pensiya tarixidagi ilk xususiy pensiya rejasi tuziladi. Unga ko`ra kompaniya kompaniyada 20 yillik mehnat stajiga ega bo`lgan, 60 yoshli ishchilarga ish faoliyatini to`xtatganlik to`lovlar to`lanilishi ma`lum qilinadi. Birinchi o`qituvchilar uchun pensiya sxemasi Nyu York shahrida (1894 yil) va Nyu Djeri

³ O`zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida”gi qonun.

shtatida (1896 yil) joriy etilgan. 1898 yilda Ogayo shtatida AQSH tarixidagi ilk ko`rlarni pensiya bilan ta`minlash qonun loyihasi qabul qilingan.

Ko`plab pensiya dasturlari ilk marotaba buyuk Britaniya va AQSHda tashkil etilganiga qaramasdan, umumdavlat ijtimoiy sug`urta dasturi birinchi marta Germaniyada vujudga kelgan⁴. Bu “kasallik va yoqimsiz hodisalardan sug`urtalash to`g`risidagi qonun” ning qabul qilinganidan so`ng boshlandi. Buyerda majburiy sug`urta prinsipi amalga oshirilib kelinadi. 17 noyabr 1881yilda imperator Vilgelm I kansler Bismark taklifi bilan band aholiga majburiy ijtimoiy ta`minotni joriy etadi. 1889 yildagi “Qarilarni pensiya bilan ta`minlash to`g`risida”gi farmonning qabul qilinishi bilan Germaniya pensiya ta`minotining milliy dasturiga ega bo`lgan dunyodagi birinchi mamlakatga aylandi. Bu davrda pensiya olish yoshi 70 yosh etib belgilanib, aholing o`mir ko`rish yoshi 47 yoshni tashkil etgan.

O`zbekistondagi pensiya ta`minoti tarixidan qariyalarga g`amho`rlik O`rta Osiyo xalqlari hayotida eng asosiy jabha bo`lganiga guvoh bo`lamiz. Ushbu fikrning dalillini VIII-XV asrlar va undan keyingi davrlarga to`g`ri keladi. Omadli harbiy yurishlardan so`ng buyuk sarkarda Amir Temur jangda jarodarlangan harbiy qomondonlarga umrini ohirigacha pensiya belgilagan, ularning oilasi va ota-onasini, shuningdek, jangda halok bo`lgan jangchilarning oila a`zolarini moliyaviy jihatdan ta`minlab borgan⁵.

1917 yildagi oktyabr to`ntarishidan so`ng Rossiyada aholini pensiya bilan ta`minlash evolyusiyasi boshlandi. Ilk bora mamlakat miqyosida sug`urta prinsipiga asoslangan pensiya ta`minoti butun ijtimoiy sug`urta sistemasi qatori davlat ijtimoiy ta`minotiga almashtirildi. Sug`urtani amalga oshiruvchi butun organlar likvidatsiya qilindi, sug`urta kompaniyalarining yig`ilgan mablag`lari davlat budjetiga o`tkazildi. Sug`urta mexanizmining yo`q qilinish jarayoni 1921 yilgacha davom etadi.

⁴ GERMAN PENSION SCHEMES, OECD 2002.

⁵ “Temur tuziklari” kitobidan foydalanildi.

Keyin asta sekinlik bilan sug`urta agentligi paydo bo`la boshladi. Bu jarayon 1933 yilda to`xtatilib, butun sug`urta kompaniyalarining birlashish operatsiyasi amalga oshirila boshlanadi.

Pensiya tizimi 1956 yilda “Davlat pensiyasi to`g`risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan qonuniy shaklni kasb etadi. 1964 yildagina kolxozishchilarini inobatga olgan “Kolxoz a`zolari uchun pensiya va to`lovlar to`g`risida”gi qonun qabul qilinadi.

“Fuqarolarning davlat pensiya taminoti to`g`risida”gi Qonunning 6 moddasida “Pensiya to`lovi davlat tomonidan yillik sobiq SSSR davlat budjetdan ajratiladigan mablag` hisobidan amalga oshiriladi” deyilgan va shu davrdan boshlab korxona va mehnat kollektivi, shu jumladan, kasaba uyushmalari ham ijtimoiy sug`urta fondidan foydalanishga haqqi yo`q edi, biroq umumiy hajmi ish haqi fondining 40 foiziga teng bo`lgan sug`urta to`lovlari ko`rinishidagi pul mablag`larini to`lashga majbur edilar. Agar 1956 yilda mamlakatda qonun bo`yicha pensiya o`rtacha ish haqining 65 foizini tashkiletgan bo`lsa, Ittifoqning parchalanish davriga kelib ushbu ko`rsatkich 43 foiz bo`lgan. 1990 yilgacha (deyarli 60 yil) pensiya ta`minoti tizimida o`zgarish kuzatilmadi.

1956 yilda belgilangan ayollar uchun majburiy staj 20 yil va erkaklaruchun 25 yil hozirda bir qator MDH mamlakatlarida amalda. Shu tariqa pensiya ta`minoti bilan birga ijtimoiy sug`urta mamlakat daromadlariniqayta taqsimlovchi asosiy instrumentga aylandi va shu davrdan boshlabo`zining moliyaviy mustaqilligini yo`qotib, davlat budjetiga qo`shiladi.

1991 yilda O`zbekiston mustaqil bo`lishi bilan mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarining maqsadi kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo`ldi. Ijtimoiy himoya va pensiya ta`minotiga qaratilgan davlatmablag`laridan yanada samarali foydalanish maqsadida 1993 yil 4 avgustdasobiq SSSR Pensiya Fondining O`zbek bo`limi bazasida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida ijtimoiy sug`urta fondi tashkil etildi. 1993 yil 3 sentyabrda esa “Aholining pensiya ta`minoti to`g`risida”gi birinchi Qonun qabul qilindi. Shu tariqa birinchi tashkiliy,qonuniy va moliyaviy asos

solindi va bu o`z navbatida o`sha davrda davlatdagi 2,9 million pensioner va 400 ming nogironlarning⁶ stabil pensiya vato`lovlarni olish imkonini berdi⁷.

Bugungi ijtimoiy munosabatlarga doir masalalarga murojat qilganda O`zbekiston Respubikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek, har safar “Bizning xalqimiz uchun muqaddas bo`lgan qadriyatlarimizdan kelib chiqib, katta tarixiy me`roslarga tayangan holda umum e`tirof etilgan demografik tamoyillar va me`yorlarga roiya qilib yondashish lozim”⁸.

O`zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 14 yanvardagi 9-son qaroriga asosan Pensiya fondining O`zbekiston jumhuriyat bo`limi tashkil etilgan. Ijtimoiy ta`minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug`urta mablag`larining to`g`ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi va O`zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993 yil 4 avgustdagi 391-son qaroriga muvofiq, sobiq Ittifoq Pensiya fondining O`zbekiston Respublika bo`limi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug`urta jamg`armasi tashkil etilgan. Unga O`zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug`ish boyicha, farzand tug`ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to`lashga yo`naltiriladigan davlat ijtimoiy sug`urta mablag`lari berilgan.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta`minoti uchun majburiy badallarning to`liq kelib tushishi xamda davlat ijtimoiy sug`urtasi boyicha pensiya va nafaqalarni to`lashga xarajatlarni o`z vaqtida moliyaviy ta`minlash uchun ijtimoiy ta`minot organlarining mas`uliyatini oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrda 459-son qaroriga asosan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug`urta jamg`armasi negizida O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot vazirligi huzurida Qoraqalpog`iston Respublikasi

⁶ O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-1992 yil ijtimoiy ta`minot statistik hisoboti.

⁷ Allayarov Sh., Toshmumammedova D. Davlat pensiya ta`minoti (o`quv qo`llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. – B. 92

⁸ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. Birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi nutqi. 14 aprel 1999. – T.: “O`zbekiston”, 1999 141-b.

Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli hududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi 444-son qaroriga muvofiq, 2001 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga pensiyalar, shuningdek ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan to'lanadigan nafaqalarni o'z vaqtida hisoblash va to'lash funksiyalari yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 21 oktabrdagi 490-son qaroriga asosan, 2005-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning

pensiya ta'minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun mas'ul bo'lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funksiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etilgan. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi eng asosiy masala pensiya ta'minoti masalasidir. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuniko'rsatadiki, bozor munosabatlari rivojlangan sari mehnat faoliyatini amalga oshira olmaydigan aholi qatlamining ijtimoiy muhofazasi muammoli tus ola boradi. Rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlardarajasi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilganlik usullari (yollanib ishlovchilar, o'zini-o'zi bandetuvchilar) bo'yicha chuqur differensiyalashgan bo'lib, bu o'z navbatida mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan turli sotsial va professionalrisklar tufayli daromadidan ajralib qolishga olib kelishi va ushbu holatdan himoyalani sh usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bozor munosabatlarining natijalari – nostabillik stabillikni, daromadlar differensiatsiyasi daromadlarni adolatli qayta taqsimlanilishini, inflyasiya narxlar boshqaruvini, ishsizlik ijtimoiy kafolatlarni talabetadi. Shuning uchun pensiya tizimi jamiyatdagi doimiyijtimoiy balansstabilligini hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishinita'minlovchi zaruriy mexanizm hisoblanadi.

Pensiya ta'minoti tizimi oldida uchta muhim maqsadlar turadi⁹:

- fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagikafolatlangan daromadni ta'minlash;
- bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash.

Pensiya tizimi jamiyatningturli ijtimoiy qatlamlariningmanfaatlarini qondirish uchun mo'ljallangan, iqtisodiy, ijtimoiy vahuquqiy institutlarni birlashtiruvchi murakkab organizmdir.Birinchi pensiya tizimi 100 yil oldin paydo bo'lganiga va bir necha islohot bosqichlarini o'tganiga qaramay, bugungi kunda pensiya ta'minotidagi muammolar hatto rivojlangan mamlakatlarda ham kuchaydi.

⁹ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. 94-b.

Bu, birinchi navbatda demografik vaziyat bilan bog'liq, chunki o'tmishda o'tkazilgan islohotlar har doim ham ushbu holatni inobatga olmaydi.

Hozirda bir qator Evropa davlatlaridagi demografik vaziyat quyidagicha ko'rinishga ega: aholining mehnatga yaroqli qismining o'sish tendensiyasipasayib yoki umuman qisqarib bormoqda. Bunda 60 va hatto 80 yoshli aholiqatlamining ulushi keskin ortib bormoqda, bu esa pensionerlar sonini oshishiga olib kelmoqda (1.1-jadval)

1.1-jadval


Aholi ulushidagi 60 va undan katta bo'lgan yosh guruhining ulushi (foiz hisobida)¹⁰

Mamlakatlar	Yillar						
	1980	1990	2000	2010	2020	2030	2040
Germaniya	15,5	15,5	17,1	20,4	21,7	25,8	27,6
Fransiya	14,0	13,8	15,3	16,3	19,5	21,8	22,7
Italiya	13,5	13,6	15,3	17,3	19,4	21,9	24,2
Buyuk Britaniya	14,9	15,1	14,5	14,6	16,3	19,2	20,4

Demografik prognozga ko'ra, rivojlangan mamlakatlardagi aholi qarishi jarayoni jadal tus oladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi va aholining turmush sharoitining yaxshilanishi demografik vaziyatni keskinlashtirda, balki pensiya tizimiga ta'sirini o'tkazuvchi yangi faktorlarni keltirib chiqardi. Ularga tug'ilish qisqargan sharoitda umr ko'rish uzunligining ortishi; pensiyaga vaqtli chiqish, ya'ni mehnat davrining va badal to'lov davrining qisqarishi; mehnatga layoqatli aholi qatlamiga bog'liqlik (qaramlik) koeffitsientining oshishi kiradi.

¹⁰ National Research Council. Preparing for an aging world: The Case for Cross-national Research, Committee on Population and Committee on National Statistics, Division of Behavioral and Social Sciences and Education. Washington, DC: National Academy Press, 2001.


2000 yili dunyo bo'yicha 65 yoshli aholi soni 419 mln. nafar deb hisoblangan. Bu ko'rsatkich 1950 yilga nisbatan 298 mln. nafarga, 1995 yilga nisbatan esa 99 mln. nafarga ko'p. BMT ma'lumotlariga qaraganda, 2000 yilda yuqori yoshdagi holi qatlami har oyda 750 000 nafarga oshgan, prognozlariga ko'ra, 2020 yilga kelib esa bu o'sish oyiga 2 000 000 ni tashkiletadi. Yoki foiz hisobida ko'riladigan bo'lsa, butun dunyodagi aholining 65 yoshdan oshgan qismi 1990 yilda 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2030 yilga kelib 17 foizga etadi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Mintaqalar bo'yicha 1990 yildagi 65 yoshdan yuqori aholi (foizda)¹¹

Ya'ni, 40 yil davomida dunyo bo'yicha 60 yoshdan yuqori aholi etti foizga ortganligini ko'rish mumkin. Agar mamlakatdagi aholining 12 foiz qismi mehnatga yaroqlilik yoshidan yuqori bo'lsa, mamlakat aholisi qarilik bosqichiga etganini bildiradi. Ushbu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasida 2008 yilda 55 yoshdan yuqori yoshli aholi qatlami 8,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2011 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 9,2 foizga etgan, ya'ni 3 yil davomida 0,7 foizga ortgan va uprogressiv tusga ega (1.2-jadval)

¹¹ Estel Djeysms. Mnogourovnevie pensionnie sistemi: sxodstva i razlichiya. S.1.



1.2-rasm. Mintaqalar bo'yicha 2030 yildagi kutilayotgan 60 yoshdan oshgan aholi (foizda)

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O'zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy samaralishakllarni qo'llashni talab etadi.

1.2-jadval

O'zbekiston Respublikasidagi aholining yoshi bo'yicha taqsimlanish tuzilmasi¹²

Yillar	Jami (foizda)	Shu hisobda yoshida (foizda)						
		16 yoshgacha	16-24	25-29	30-39	40-49	50-54	55dan katta
2008	100	33,3	20,2	8,6	14	11,5	3,9	8,5
2009	100	32,7	20,3	8,7	14	11,5	4,2	8,6
2010	100	32,1	20,2	8,9	14,2	11,4	4,4	8,8
2011	100	32,1	19,8	9,2	14,4	11,5	4,7	9,2
2012	100	31,1	19,4	9,3	14,5	11,6	4,8	9,3

Pensiya tizimlarining prinsipial tafovuti ularning moliyalashtirilish shakllaridir. Dunyoda pensiya tizimini moliyalashning ikki hil shakli mavjud: qayta taqsimlash pensiya tizimi. Bunda joriy pensiya xarajatlari joriy tushumlar

¹² Stat.uz manbalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

hisobiga qoplanadi. Ushbu metod PAYG (pay-as-you-go) – “yurar ekansan, to`la” nomini olgan; jamg`arish metodi. Bunda mablag`lar mahsus fond (rezerv) tashkil etish uchun yo`naltiriladi va ushbu mablag`lar joriy va kelajakdagi pensiya xarajatlarini qoplashga yo`naltiriladi.

Bugungi kunda ko`plab mamlakatlarda pensiya tizimi qayta taqsimlash pensiya tizimiga asoslanadi. Tajribaga¹³ Xalqaro mehnat tashkilotitomonidan jalb qilingan 58 mamlakatdan 44 tasining pensiya tizimi qaytataqsimlash pensiya tizimida ekanligi aniqlangan. Bu kabi mamlakatlardagidavlat pensiya fondi yoki boshqa mos davlat tashkiloti pul mablag`larining akkumuliratsiyasi bilan shug`ullanadi.

Jamg`arma pensiya tizimi esa pul fondlarida jamg`arilgan pensiya mablag`larga asoslangan tarzda pensiya to`lovini amalga oshiriladigan tizimga aytiladi.

Jamg`arma pensiya ta`minoti funksiyasi o`zida uzoq muddatliinvestitsion jarayonni namoyon etib, quyidagi bosqichlardan iborat¹⁴:

- birinchi bosqichda jamg`arma pensiya fondiga badal ko`rinishidagiqo`yilmalar qo`yiladi;

- ikkinchi bosqichda jamg`arilgan pension pul mablag`larininginvestitsiya jarayoni bo`lib o`tadi. Ushbu investitsion jarayonning asosiy tomonlari qabul qilingan qoidalar, badal va pensiya hajmiga qarab aniqlaniladi.

- uchinchi bosqichda doimiy davriy pensiya to`lovlari amalga oshiriladi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi ko`rsatishicha, pensiya fondlari mamlakat moliyaviy tizimining stabilizatori bo`lib xizmat qiladi, chunki ular uzoq muddatli investitsiyalash maqsadida qimmatli qog`ozlarga ega bo`ladi va birja o`yinlarida kamdan-kam ishtirok etishadi.

Pensiya fondlari yordamida bo`sh pul resurslari ishchi kapitali oqimiga transformatsiyalashadi, shuning uchun ular muhim investorlar hisoblanadi. Oxirgi

¹³ Social security, including social protection of public employees in respect of invalidity, retirement and survivor's benefits. Geneva, ILO, 1988.

¹⁴ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta`minoti (o`quv qo`llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. 56-b

yillardagi tajriba ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi pensiya tizimi uch bosqichli ekanligini ko'rsatmoqda:

Birinchi bosqichning maqsadi – ijtimoiy, kambag'allikdan himoya qilish. Ushbu bosqich muayyan yashash minimumini kafolatlaydi. Ushbu maqsadni davlat ijtimoiy qayta taqsimlash tizimi amalga oshiradi. Ijtimoiy pensiya differentsiatsiyasi (staj, mehnat hissasi, oylik ishhaqi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liqlik) mavjud emas yoki minimal darajada.

Ikkinchi bosqichning maqsadi pensionerni unga odatiy bo'lgan darajada ta'minlash. Ushbu bosqich aholining aktiv holatda ishlayotgan qismiga mos bo'lib, uni mehnatga yaroqli davrida jamg'arishga rag'batlantiradi va ushbu jamg'armani pensiya yoshida iste'molini ta'minlaydi. Ushbu maqsadni davlat yoki uning nazorati ostida tashkil etiladigan majburiy pensiya tizimi amalga oshiradi.

Uchinchi bosqichning maqsadi esa individual qo'shimcha ixtiyoriy pensiyata'minoti hisoblanadi. Ushbu bosqich sug'urta kompaniyalari, banklar, xususiy pensiya va boshqa fondlar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat odatda bu bosqichda qatnashmaydi. Aholining qarib borish jarayoni jadallashuvi va bandlik shakllarining o'zgarishi (bandlarning umumiy hajmining qisqarishi, noformal va xususiy bandlikning oshishi hamda kasanachilik) bilan solidar pensiya tizimida YAIM tarkibida pensionerlarni ta'minlash uchun ajratiladigan xarajatlar oshishi, shuningdek, jamiyatdagi mehnat faoliyati bilan band aholi qatlamiga yukog'irlashadi. Shu holatga muvofiq 1960 yildan 1985 yilgacha Iqtisodiy Hamkorlikni rivojlantirish tashkiloti (IHRT) a'zolarida pensiya xarajatlari YAIM o'sishidan ikki baravar tezroq o'sishga ega bo'lgan. Hozirgi kunda IHRT mamlakatlari pensiyaga YAIMning o'rtacha 9 foizi hisobida xarajatni amalga oshiradi va bu ko'rsatkich mamlakatlar bo'yicha har hil ko'rinishga ega. Masalan, Avstriyada davlat pensiya xarajatlari 15 foiz atrofida, Italiyada – 14 foiz, Fransiyada – 13 foiz, AQSHda – 6,5 foiz, Yaponiyada – 5 foiz va Kanadada – 4,5 foizga teng.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda har 65 yoshdan oshgan inson hisobiga 4-5 nafar mehnatga yaroqli insonlar to'g'ri keladi. Biroq 20–25 yil ichida ushbu

ko'rsatkich Evropa mamlakatlarida 1:1,2 nisbatda; AQSHda esa 1:3,5 nisbatdabo'ladi. IHRT ekspertlari hisob-kitobiga ko'ra, Yaponiya va Evropa mamlakatlarida yangi asrning birinchi o'n yilliklarida YAIM tarkibidagi pensiya xarajatlari 14 – 20 foizgacha oshadi.

Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog'liqbo'lib, to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotniinvestitsiyalashning moliyatiy manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.Mavjud pensiya tizimi islohotining strategiyasi pensiya tiziminitashkiliy va qonuniy jihatdan yangilash bo'lib, bu pensiya taminotiningmoliyaviy muvozanatini yaxshilaydi, uning samaradorligi taminlaydi.

1.2. Pensiya ta'minoti tizimining me'yoriy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiyalari to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

Qonun bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi¹⁵.

Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin. Davlat pensiyalariningturli

¹⁵ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. 45-b.

hillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlaganbitta pensiya tayinlanadi.

Harbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi, ularga qonunda nazarda tutilgan asoslardapensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir hildahisobga olinadi. Fuqarolar yoshga doir pensiya olish huquqiga:

- erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgantaqdirda;

- ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgantaqdirda ega bo'ladilar.

Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslargayoshga doir pensiyalar O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlatpensiyalari to'g'risida”gi Qonuni 37-moddasi birinchi qismining «a», «b», «v» va «g» bandlarida nazarda tutilgan kamida 5 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

- yoshidan qat'iy nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati;


- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati;

- umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar vako'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati.

Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega. Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog`lig`ini yoki mehnat qobiliyatini yo`qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt vanogironlikning qancha muddatga belgilanishi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to`g`risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.


Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o`tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagiyoshga qarab aniqlanadi. Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga egabo`lmagan (17-modda) umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda (29-modda) tayinlanadi.

Pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog`liq bo`lib, quyidagilardan tarkib topadi: pensiyaning tayanch miqdoridan; ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan; pensiyaga qo`shiladigan ustama haqidan.



1.3-rasm. Pensiya miqdorining ish staji muddatiga bog`liq holdagi tarkibi¹⁶

¹⁶ Pensiya ta`minoti tizimiga oid huquqiy-me`yoriy hujjatlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



1.4-rasm. O`zbekiston Respublikasida o`rtacha pensiyaning tarkibi¹⁷

Pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilanadi:

a) yoshga doir pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o`rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan engkam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o`rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

g) oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a`zosiga boquvchisini yo`qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o`rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

d) ota-onasidan judo bo`lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg`izonaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo`qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o`rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqiga qonunhujjatlariga muvofi sug`urta badallari hisoblanadigan mehnatga haq to`lashtaridagi barcha daromadlar qo`shiladi. Davlat tomonidan ijtimoiysug`urtalanmaydigan shaxslarga pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqiga qonun hujjatlariga muvofiq sug`urta badallari hisoblanadigan mehnatga haq to`lash tarzidagi

¹⁷ www.pfru.uz. sayti ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

daromadlarga o'xshash pul ta'minotining barcha turlari qo'shiladi. O'qish davrida to'langan stipendiya pensiya so'rab murojat etgan kishining xohishiga ko'ra ish haqiga tenglashtiriladi. Ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan xodimlarning (dehqon xo'jaliklarining a'zolari, ayrim fuqarolarning yumushlarini bajaruvchi shaxslar va boshqalarning) pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqining miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ish haqining natural qismi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi uchun hisoblangan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi»¹.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat'iy nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket beshyildagi (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi o'tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda qayta hisoblanadi¹⁸.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga ko'ra, ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar to'liq ishlangan kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiya so'rab murojaat etgan kishi besh yildan kam ishlagan hollarda, pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi istalgan

¹⁸ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. 96-b.

ketma-ket besh mavsumdagi qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Pensiyaning hisob-kitob qilish uchun eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan ortiq bo'lmagan miqdordagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi. Pensiyaning hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar umuman mavjud bo'lmagan hollarda pensiya eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Chet elda ishlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ijtimoiy himoya tizimiga oid huquqiy asoslarning takomillashtirilayotganligi ijtimoiy sohaga Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar salmog'i vasamaradorligining ortishiga xizmat qilmoqda. Bundan ko'zlangan pirovardmaqsad ham fuqarolar manfaatlarini yanada kengroq himoya qilish va xalqfarovonligini oshirishdir. Respublikamizda 2010 yilning 23 dekabrda e'lon qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ham shu maqsadga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy siyosatni adolat tamoyillaridan kelib chiqib amalga oshirishda uning huquqiy asoslarining zamon talablariga mos bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonun ham pensiya qonunchiligini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajriba hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish, shuningdek Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirishda fuqarolarning qo'shgan shaxsiy hissasi bilan tayinlangan pensiyalar miqdori o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashdan iborat. Ayni paytda, amaldagi pensiya ta'minoti qonunchiligiga kiritilgan mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar aholining bandligini va farovonligini yanada oshirish, rasmiy sektorda mehnatqilishni rag'batlantirishda muhim omil bo'lishini ham alohida ta'kidlash lozim.

Respublikamizda 1993 yil 3 sentabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi qonunda yoshga doir pensiya olish huquqini beruvchi mehnat stajining quyi chegarasi belgilanmagan edi. Fuqaro 1 oy, hatto 1 kun ishlagan fuqaroga ham yoki 10 yil ish stajiga ega fuqaroga ham pensiya yoshiga etganda bir xil – eng kam miqdordagi pensiya tayinlandi. Koʻrinib turganidek, bu ijtimoiy adolat printsiplariga toʻla mos kelmasdi. Aslida kim koʻp va samarali mehnat qilgan boʻlsa, pensiya yoshiga etganida shunga yarasha daromad koʻrishi kerak. Bir qator davlatlarning qonunlarida pensiya tayinlash uchun kamida 5 yillik sugʻurta badallari toʻlangan ish staji boʻlishi belgilangan. Jumladan, AQShda pensiyaga chiqish uchun kamida 5 yildan 10 yilgacha ish staji talab etiladi. Litva va Estoniyada ushbu talab 15 yildan iborat. Chilida esa kamida 20 yil davomida sugʻurta badallari toʻlagan fuqarolargagina eng kam miqdordagi pensiyalar tayinlanadi.

Shu munosabat bilan “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 8-moddasiga oʻzgartish kiritilib, pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega boʻlmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu qonunning 37-moddasi birinchi qismi “a”, “b”, “v” va “g” bandlarida nazarda tutilgan kamida 5 yil ish staji mavjud boʻlgan taqdirda, mavjud stajga mutanosib miqdorda tayinlanishi belgilandi. Pensiyaga chiqayotgan fuqaro, umri boʻyi ishlamagan, masalan, uy bekasi boʻlgan, talab etilayotgan 5 yillik ish stajiga ega boʻlmasa, bu fuqarolarning keksalikdagi ijtimoiy himoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-sonli qarorida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Yaʼni, mazkur qarorda bolalikdan nogironlarga, mehnatga layoqatsiz fuqarolarga hamda zarur ish stajiga ega boʻlmagan qariyalarga nafaqa tayinlash va toʻlashtartibi belgilangan.

Mamlakatimiz qonunchiligida aholining huquq va manfaatlarini himoyalashni mustahkamlashga qaratilgan qator imtiyozlar belgilangan. “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining ayrim moddalariga kiritilgan oʻzgartishlarga muvofiq imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega fuqarolar toifasi ham nazarda tutilgan.

Qonunlarimizda ijtimoiy himoya tizimida fuqarolarga qonuniy imtiyozlar yaratish alohida e'tiborga olingan. Xususan, ekologiya falokati mintaqasida ishlaganlarga imtiyozlipensiya tayinlash huquqi 1993 yil 3 sentabrdagi qonun bilan joriy qilingan. Bunga Chernobil atom elektr stantsiyasida yuz bergan halokat asos sifatida olingan. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolarga imtiyozli pensiya tayinlash normasi faqat O'zbekiston Respublikasi pensiya qonunchiligida mavjud va boshqa biror bir davlat qonunchiligida bunday me'yor nazarda tutilmagan. Shuningdek, tabiiy ofat, halokat yoki falokatlar sodir bo'lgan hududlarda xizmat vazifasini o'tagan va mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 apreldagi "Chernobil halokatida ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash haqida"gi, 2002 yil 31 mayda qabul qilingan "Yadro poligonlarida va boshqa – yadro obektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidandir¹⁹.

Ammo hozirgi kunga kelib bunday imtiyozlarga hayotda ehtiyoj deyarli qolmadi. Shularni inobatga olib, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 9 moddasiga o'zgartish kiritildi, imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega fuqarolar toifasidan ekologiya mintaqasida ishlaganlar chiqarildi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida ekologik noqulay hududlar, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Toshkent viloyatining Yangiobod shaharchasida ishlovchilarning oylik ish haqlariga belgilangan mintaqaviy koeffitsientlar saqlab qolindi.

Mamlakatimizdagi barcha ta'lim va tibbiyot maskanlari zamonaviy texnika, texnologiyalar va jihozlar bilan ta'minlanmoqda. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy

¹⁹ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. 105-b.

o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida barcha sohalarda mehnat unumdorligi o'sishi va daromadlarning keskin oshishiga erishilmoqda.

Mamlakatimizda erishilayotgan bunday yuksak samara va yutuqlar "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 12-moddasi "z", "k" va "l" bandlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Mazkur bandlarda o'qituvchilar va ta'lim sohasining boshqa xodimlari, shifokorlar va boshqa tibbiy xodimlar, shuningdek, besh va undan ortiq farzand tuqqan va ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar uchun imtiyozli pensiya olish huquqi nazarda tutilgan edi. Mazkur Qonunga kiritilgan o'zgartishlarda imtiyozli toifalar optimallashtirilib, muassasalar turi bo'yicha imtiyozlar umumta'lim maktablaridan maxsus ixtisoslashgan maktablarga o'tkazildi hamda barcha turdagi tibbiyot muassasalari o'rniga ish sharoiti og'ir va zararli maxsus ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari xodimlari uchun saqlab qolindi. Shuningdek, qonunga kiritilgan yangi tahrirga binoan transport sohasining temir yo'l transporti, metropoliten hamda daryo transporti xodimlariga belgilangan imtiyozlar saqlab qolindi.

Mamlakatimizda aholining kam ta'minlangan qatlamlari huquq va manfaatlarini himoyalash, nogironlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli va izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Qonunlarimizda belgilangan imtiyozlar orqali nogironlarning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ma'lumki, III guruh nogironlarining aksariyati iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritadi. Boshqacha aytganda, mehnat qilishga qodir fuqarolardir. Ular orasida salomatligida arzimagan nuqsoni bor, lekin muayyan sohalarda bemalol mehnat qilishga yaraydigan, ammo "yo'lini topib" nogironlik pensiyasiga "chiqib olgan" shaxslar ham uchrab turadi. Shu bois, qonunning yangi tahririga asosan, 2011 yil 1 yanvardan yangi belgilanadigan III guruh nogironlariga pensiya tayinlash bekor qilindi. Ayni paytda, mazkur guruh nogironlari uchun kvotalar asosida ishga joylashish va ularni bepul tibbiy anjomlar bilan ta'minlash bo'yicha qonunchilikda belgilangan imtiyozlar to'la saqlab qolindi. Xodimning pensiya yoshiga etishi munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish huquqini ish beruvchiga

berish, nogironlik guruhlari bo'yicha pensiya tayinlash hamda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til davrida mehnat stajini hisoblash masalalarini tartibga soluvchi qonun normalarining takomillashtirilishi, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ham tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etdi. Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 100-moddasi (Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish) ikkinchi qismini yangi 7-band ("xodimning pensiya yoshiga to'lganligi, bunda qonunchilikka muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo'lganda" so'zlari) bilan to'ldirildi.

Bundan ko'zlangan maqsad – mamlakatimizda jadal joriy etilayotgan va alohida tayyorgarlikni talab etadigan zamonaviy axborot va ishlab chiqarish texnologiyalariga xodimlarning ko'nikma va tayyorgarligini oshirish, pensiya oluvchilarning jismoniy imkoniyatiga mehnat vazifalarining mos kelishini ta'minlash va ular uchun mehnat faoliyatining maqbul sharoitlarini yaratishdan iborat. Bunda pensiya yoshiga etgan xodimlarning mehnat qilishi uchun maqbul sharoitlarni yaratish, zarur hollarda ularni engilroq vazifalarga o'tkazish, shuningdek, mehnatga oid munosabatlarni boshqarishni takomillashtirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2010 yil 20 martda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi muhokamasiga "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini kiritgan edi. Aslida, bu huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida ishlab

chiqilgan. Huquqiy hujjatda mavjud bir qator qonunlarimizga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan.

Xususan, uning ayrim moddolari bilan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Budget tizimi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ba'zi bir o'zgartishlar kiritildi.

1.3. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta'minoti tajribalari

Rivojlangan g'arb mamlakatlari fuqarolari uchun pensiya ta'minoti yosh avlod tomonidan ishlab topilgan pulni qayta taqsimlash emas, balki o'zlarining mablag'larini tasarruf etish tushuniladi. Qariyalarni ta'minlash bilan bog'liq moliyaviy majburiyat YAIMning ahamiyatli qismini egallaydi. XX-asrning 90-yillari boshlarida Italiyada pensiya ta'minoti xarajatlari YAIMning 14,2 foiz, Fransiya – 13,3 foiz, Germaniyada – 12,3 foiz, Shvetsiyada – 11,3 foiz, AQSHda – 6,9 foiz, Buyuk Britaniya – 6,4 foiz, Kanadada – 6,0 foiz, Yaponiyada – 5,7 foiz bo'lgan va bu ko'rsatkich o'sib borgan.

Rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy himoya tizimining vujudga kelishi dissertatsiyaning 2-ilovasida keltirilgan.

Koreyada ushbu ko'rsatkich mos ravishda 7,5 foiz va 2,6 foiz, Fransiya esa 28,4 foiz va 2,9 foiz, Belgiyada 26,3 foiz va 4,7 foiz ni tashkil etgan. Demak, davlat va xususiy pensiya ta'minotiga YAIM hisobidan yuqorida keltirilgan mamlakatlar ichida eng ko'p xarajatni Fransiya (31,3 foiz), Belgiya (31,1 foiz), Shveysiya (30,2 foiz), Daniya (28,7 foiz) va Avstriya (28,2 foiz) mamlakatlari

kiritisa, eng kam xarajatlarni Meksika (7,4foiz), Koreya (10,2foiz), Turkiya (10,5 foiz), Chili (11,8 foiz) va Estoniya (13,0 foiz) davlatlari amalga oshiradi.

Davlat pensiya tizimining asosiy moliyaviy manbai ijtimoiy sug`urta tizimiga kiritiladigan to`lovlar hisoblanadi. Umumumiy oylik ish haqining hajmiga bog`liq bo`lib, turli mamlakatlarda turlicha ko`rsatkichga (Kanadada 5foiz, Italiyada 27foiz gacha) ega. Ayrim mamlakatlar (AQSH,Kanada, Yaponiya)da to`lovlar ish beruvchi va ishchilar tomonidan teng miqdorda to`laniladi, boshqa mamlakatlar (Ispaniya, Italiya)da esa ish beruvchi zimmasiga yuk ko`proq tushadi (1.3-jadval).

1.3-jadval

Rivojlangan g`arbiy evropa mamlakatlarining sug`urta pensiya to`lovlari hajmlari

Mamlakatlar	Sug`urta	Pensiya	to`lovlari	hajmi (foizda)
	Moliyalashtirishning	I bosqichi	II bosichi	III bosqichi
	Ish beruvchi	Ishchi	Moliyalashtirish	Moliyalashtirish
Fransiya	9,9	9,65	Moliyalashtirish	Xususiy pensiya
Germaniya	19,4	19,4	Moliyalashtirish	Xususiy pensiya
Buyuk Britaniya	12,8	11 va undan yuqori to`lanadigan ishchilar uchun plus 1%	Moliyalashtirish	Foydadan to`lanadigan personal pensiya
Irlandiya	8,5 – agar haftalik ish haqi 355 evrodan kam bo`lsa, 10.75 – agar shu summadan ko`p bo`lsa	4	moliyalashtirish	Xususiy pensiya
Gollandiya	5,65	19	Moliyalashtirish	Xususiy pensiya
Ispaniya	23,6	4,7	Moliyalashtirish	Xususiy pensiya

Ko`p mamlakatlarga oid xususiyatga ko`ra, solidar tizim bo`yicha davlat pensiya sug`urtasiga sug`urta pensiya to`lovlarini bir hilda taqsimlanishi hisoblanadi. Germaniyada ushbu ko`rsatkich bir hilda taqsimlangan - 19,4foizdan ish beruvchi va ishchi zimmasiga tushadi, Buyuk Britaniya va Fransiyada ish beruvchilar ishchilarga nisbatan ko`proq to`lashadi, Irlandiya va Ispaniyada ish beruvchilarning sug`urta pensiya to`lovlari ishchilarga nisbatan bir necha barobarga oshib ketadi. Umumiy tendensiya mazkur mamlakatlardagi sug`urta

pensiya to'lovlarini ish beruvchi va ishchilar o'rtasida tenglashtirishdan dalolat beradi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda pensiya indeksatsiyasi iste'mol narxlariga bog'liq holatda amalga oshiriladi. Germaniya, Fransiya va Yaponiyada pensiya iste'mol narxlariga ko'ra emas, balki oylik ish haqi o'zgarishiga muvofiq indeksatsiya qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat pensiyasidan tashqari hususiy pensiya sug'urtasi tizimi ham joriy qilingan bo'lib, u professional yoki individual jamg'arma asosida qurilishi mumkin bo'lgan. Bugungi kunda Evropa davlati aholisining uchdan bir qismi aholini professional pensiya sug'urtasi prinsipida qurilgan turli hildagi tizimlarga jalb etilgan.

Professional tizimlar davlat va individual sxemalaridan farqli o'laroq ish beruvchilar tomonidan moliyalashtirilib, firmaning ixtiyoriy ajratmalari yoki jamoa shartnomalaridagi mavjud shartlarga tayanadi.

Professional sxemalar davlatning minimal aralashuvi ostida va nisbatan kam ma'muriy xarajatlarga ega bo'ladi. Bunday tizimda ishchiga kelajakda to'laniladigan pensiya uning staji va oylik ish haqisining hajmiga bog'liq bo'ladi.

Rivojlangan Evropa mamlakatlaridagi pensiya tizimi ikki bosqichdan iborat: qayta taqsimlash prinsipiga tayangan asosiy bosqich va odatda jamg'arma mexanizmiga tayanadigan qo'shimcha bosqich. Biroq Evropadagi har hil mamlakatlar tarixiy a'nanalar, joriy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy imkoniyatlar va bir qator boshqa faktorlarga ko'ra ushbu ikkibosqichni har hil qorishmasidan foydalanadi. Butkul o'xshash ikki pensiya tizimiga ega davlatni topish qiyin.

Janubiy Evropa davlatlarida qayta taqsimlash mexanizmi hukmron bo'lsa, mintaqaning markaziy va shimoliy qismlarida jamg'arma mexanizmi mashhur.

Ko'plab mamlakatlarda qo'shimcha pensiyalar ijtimoiy ta'minot tizimining asosiy jabhasi hisoblanadi. Bunday mamlakatlar qatoriga Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Daniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Irlandiya, Gretsiyani kiritish mumkin. Biroq ular orasida qo'shimcha pensiya to'lovlarini tashkillashtirishda bir qator farqlanishlar mavjud. Eng katta farq shundan iboratki,

xamma qo`shimcha tizim jamg`arma tizim emas. Fransiya, Germaniya, Shvetsiya va Finlyandiyada umumdavlat qo`shimcha pensiya tizimlari o`z asosida qayta taqsimlash mexanizmiga ega.

Evropada qayta taqsimlash tizimlari ikki katta kategoriyaga bo`linadi:

1. Belgilangan to`lovlar tizimi va belgilangan badallar tizimi. Ikki tizim har hil boshqaruv usullariga tayanadi, biroq ularning umumiy asoslari bir. Belgilangan to`lovlar tizimi o`z navbatida qat`iy belgilangan absolyut pensiya hajmi tizimiga (bunda pensiya hajmi oylik ish haqiga bog`liq bo`lmaydi) va pensiya hajmi oylik ish haqiga bog`liq bo`lgan tizimga bo`linadi.

2. Shimoli-G`arbiy Evropa mamlakatlarida qat`iy belgilangan absolyut pensiya hajmi tizimiga urg`u berilgan, lekin bunday pensiya hajmini aniqlashning turli yondashuvlari mavjud. Masalan, Buyuk Britaniya va Irlandiyada pensiya hajmi ish faoliyatining davomiyligiga, Niderlandiya va Daniyada mazkur davlatlardagi umr ko`rish uzunligiga bog`liq. K a m miqdordagi kompaniyalar sug`urtani yo`lga qo`ygan. Bunda pensiya huquqlarining xavfsizligi kontrakt tuzilgan kompaniyaning yashash davomiyligiga bog`liq. Evropa ittifoqi mamlakatlaridagi bu kabi kompaniyalar faoliyati mahsus qonun bilan tartibga solinadi va qat`iy nazoratda bo`ladi.

Umuman olganda, Evropada qayta taqsimlash mexanizmining jamg`arma mexanizmiga nisbatan o`rni katta. Dunyodagi birinchi solidar sxemaga tayangan, mehnat qiluvchilar uchun keksalik yoshiga etishi oqibatida to`laniladigan davlat pensiya tizimi asoschisi Germaniya kansleri Otto fon Bismark (1889 yil) bo`lgan. XX-asrga kelib ushbu modelni dunyodagi turli mamlakatlar o`zlashtira boshladi va u “kontinental” (ayrim payt “bismark”) nomini oldi. Germaniyaning davlat pensiya tizimi hozirga qadar eng konservativ hisoblanadi. Pensiya yoshi ayol va erkaklar uchun umumiy yosh – 67 yosh hisoblanadi (2012 yildan 2030 yilgacha). Pensiya qayta taqsimlash xarakteriga ega bo`lib, uning hajmi oylik ish haqi va mehnat stajiga bog`liq. Ish beruvchi va ishchi davlat pensiya fondiga mehnat to`lovi fondidan bir hil summa – 19,4 foiz ajratishadi.

Yirik korxonada ishlaganlar qo`shimcha tarzda ishlab chiqarish pensiyasini ham oladi. Ushbu pensiyaning mavjudligi korxonada kasaba uyushmasi va ma`muriyat tomonidan kelishilgan holda pensiya kassasi tuzilganligiga bog`liq. Ishlab chiqarish pensiyasi ish beruvchining daromadi va ishchining stajiga bog`liq. 10 yillik stajga ega ishchi ushbu turdagi pensiya olishi mumkin. Ishlab chiqarish pensiyasini taxminan yarim nemis pensionerlari oladi. Barcha davlat ishchilari qo`shimcha pensiyaga ega bo`lib, uning hajmiqarilik pensiyasi bilan teng.

Ishlovchilarning bir qismi ixtiyoriy professional pensiya tizimlarida qatnashadi. Germaniya sug`urta kompaniyalari yoki Pensiya kassalaridagi ixtiyoriy pensiya sug`urtasi aholining o`z ixtiyoriga topshirilgan, bunda davlat soliq imtiyozlari bilan rag`batlantiradi.

Buyuk Britaniyaning pensiya tizimi dunyodagi eng qadimiy ijtimoiy sug`urta tizimlaridan (1908 yil) va tashkiliy, boshqaruv, kelajakdagi pensionerlar uchun imkoniyatlar to`plami jihatdan eng murakkablaridan biri hisoblanadi. 1944 yildagi lord uilyam Beveridjning komissiya dokladi xulosalariga va 1982-1986 yillardagi islohotlarga ko`ra tizim ikki marotaba global qayta qurishga duch kelgan. Tizimning model tipi “anglo-sakson” (ayrim paytlar bu kabi tizimlarni Beveridj tizimi) deb ataladi. Britaniya tizimida pensionerlar uchta manbadan to`lovlar olishlari mumkin: bazaviy ijtimoiy pensiya, milliy sug`urta sxemasidan mehnat pensiyasi (oylik ish haqi va stajga bog`liq bo`lgan “ikkinchi” davlat pensiyasi) va ixtiyoriy jamg`armalardan professional pensiya sxemalari. Bazaviy bosqichning asosiy elementi bazaviy davlat pensiyasi (Basic State Pension, BSP) hisoblanadi. Uni zaruriy yillar davomida sug`urta badallarini to`lagan 65 yoshdan oshgan erkaklar va 60 yoshdan oshgan ayollar olish huquqiga ega. Agar ishchining oylik ish haqisi belgilangan darajadan ko`p bo`lsa, u ushbu badallarni to`laydi va shu yo`l orqali mahsus sug`urta stajiga ega bo`ladi. Ana shu stajga bog`liq ravishda bazaviy pensiya miqdori aniqlaniladi. Bazaviy pensiya belgilangan miqdordan oshmasligi kerak. Ko`p yillar davomida bazaviy pensiya narxlar oshishiga ko`ra indeksatsiya qilingan va bu yalpi pension to`lovlarda uning hissasini kamayishiga olib keldi.

Ikkinchi majburiy bosqich ham qayta taqsimlash bo`lib, u ishchi kiritgan badallar hisobiga moliyalashtiriladi. Bazaviy bosqichda to`laniladiga pensiyadan farqli o`laroq bu erda pensiya miqdori to`langan badallar miqdori bilan to`g`ri aloqadorlikka ega.

Afzal ko`rish holatlari aytilmagan taqdirda ikkinchi bosqichni oylik ish haqiga proporsional bo`lgan to`lovlarni nazarda tutuvchi davlat pensiya dasturi ta`minlaydi. Davlat pensiya dasturida ishtirok etishni hohlamagan fuqaro undan chiqib ketishi mumkin, biroq bunda u qo`shimcha pensiya ta`minoti sxemalaridan birida ishtirok etishga majbur.

Davlat pensiya dasturi (State Earnings Related Pension Scheme, SERPS) oylikka bog`langan va professional pensiya tizimida ishtirok etmaganlarni pensiya bilan ta`minlash uchun tuzilgan. 2002 yildan boshlab ushbu pensiya dasturi minimal daromadga ega va nogironlarni munosib pensiya darajasi bilan ta`minlay oladigan “ikkinchi davlat pensiya” (State Second Pension, S2P) dasturi bilan asta-sekin o`zgartirilib borilmoqda. Majburiy pensiya sxemalari tomonidan ta`minlanib beriladigan o`rtacha o`rin bosishkoeffitsienti 47,6 foizni tashkil etadi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada xususiy pensiya jamg`armasining turli yo`llari mavjud. Professional pension tizimlar eng ko`p tarqalgani hisoblanadi. Ishchilar ish beruvchilar bilan jamoaviy shartnoma tuzadi va shuning asosida u badallarni ajratgan holda pensiya to`lovlarini tashkil etadi. Ko`plab professional pensiyalar belgilangan to`lovlar mexanizmidan foydalanadi va bunda to`lov hajmi ohirgi oylik ish haqining muayyan qismiga to`g`ri keladi. Shuningdek, belgilangan badallar sxemasi ham qo`llaniladi, undagi to`lov darajasi faqat pensiyani rasmiylashtirish jarayonida ma`lum bo`ladi va u badal hajmi, investitsion daromad, pensiyaga chiqish yoshi bog`liq bo`ladi. Qo`shimcha pensiya ta`minoti pensiyani differensiyalaydi: ixtiyoriy va majburiy sxemalarda o`rin bosish koeffitsienti eng boy pensionerlar uchun 87 foizni, eng kambag`allari uchun esa atigi 21foizni tashkil etadi. Davlat pensiya sxemasi ish va pensiya bo`yicha Departament qoshidagi Pension Service (TPS) Pensiya xizmati tomonidan boshqariladi.

Badallar yig`imi bo`yicha HM Revenue & Customs javobgar bo`ladi. The Pensions Regulator professional pensiya sxemalarini nazorat qiladi. AQSHda davlat va xususiy pensiya tizimlari hukmronlik qiladi. Shuning evaziga amerikaliklar o`zlarini bir emas uchta pensiya turi bilanta`minlashi mumkin: davlat, ish joyi bo`yicha xususiy jamoa va xususiypensiya hisobini ochish yo`li bilan xususiy individual pensiyalar.

Qayta taqsimlash (davlat) tizimida pensionerlar hozirda ishlayotgan va muayyan pensiya fondlariga badallar to`layotgan ishchilar hisobiga mablag`ga ega bo`ladi. AQSHning Umumiy federal dastur (Social Security) deb nomlangan va iqtisodiyotning xususiy sektorida deyarli barcha bandlarni qamrab olgan yirik davlat pensiya tizimi qayta taqsimlash prinsipida qurilgan. Dastur 1935 yilgi "Ijtimoiy sug`urta to`g`risida"gi Qonunga ko`ra amal qiladi. Urushdan keyingi davrda Umumiy federal dastur juda tez sur`atlarda o`sdi. 1950 yildan 1995 yilgacha ushbu dasturga ko`ra pensiya to`lovlari 1 dan 328 mlrd. doll.gacha o`sdi, to`lovni oluvchilar va ularning oila a`zolari o`sha davr davomida 3,5 dan 43,4 mln. nafarga oshdi.

To`laniladigan to`lovlar hajmi ham oshdi. 15 yil davomida, ya`ni 1980 – 1995 yillar oralig`ida pensioner turmush o`rtog`i bilan (unga 50foiz nadbavka beriladi) oladigan o`rtacha pensiya miqdori 567 doll.dan 1221 doll.gacha, yoki inflyasiyani hisobga olganda 22foizga oshgan. Ijtimoiy sug`urtaga solinadigan soliq stavkasi va soliq bazasi ham ko`tarildi. Ish haqi fondiga to`laniladigan yalpi soliq stavkasi 1950 yil 3foizdan 1990 yil 15,3foizga ko`tarildi va hozirga qadar shu stavka saqlanilib qolinmoqda. Ijtimoiy soliq tadbirkor va yollanma ishchi tomonidan teng miqdorda - 7,65foizdan to`laniladi. Soliq stavkasi o`sishiga qaramay, Rossiyaga nisbatan (u erda 38,5foiz) ancha kichik. Pensiya fondiga ijtimoiy sug`urtaga soliq ko`rinishida kiritilayotgan mablag`lar deyarli pensiya mablag`larida to`planilmaydi pensionerlarga oylik pensiya to`lovlari sifatida to`laniladi.

Umuman olganda, davlat qayta taqsimlash tizimi investitsiyaga emas, belgilangan muddat va hajmda kafolatlangan pensiya to'lovlarini pensionerlarga to'lashga mo'ljallangan.

Umumiy federal dastur 70-yillarda to'lovlar kirimlardan oshib ketganida qiyinchiliklarga duch keldi. Muammoni ijtimoiy sug'urta stavkalarini oshirish yo'li bilan hal etilgan. 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy o'sish va stabilizatsiya hisobiga 2005 yilga qadar ahvol ijobiy tomonga o'zgardi, bunda ishlovchilar va pensionerlar nisbati 3,2:1 bo'lgan. Umumiy federal dastur fondlaridagi jamg'arma 1985 yili 44 mlrd. doll.dan 1995 yili 493 mlrd. doll.ga o'sdi. Umumiy federal dastur davlat sug'urta fondlarining moliyaviy va ma'muriy boshqaruvi AQSH hukumati namoyondalari - mehnat, moliya, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat vazirlaridan iborat Sovet boshqaruvi bo'lsada, ushbu fond nobudjet sanaladi, ya'ni uning mablag'lari federal budjetga kirmaydi.

Jamg'arma tizimlariga davlat va xususiy pensiya dasturlari kiradi. Davlat jamg'arma dasturlari hukumat va mahalliy organlarda ishlayotganishchilar uchun mo'ljallangan. Iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo'lgan ishchilar ish joyida tashkillashtirilgan qo'shimcha davlat pensiyatizimlarida qatnashish imkoniyatiga egadirlar²⁰.

Ish joylaridan tashkillashtiriladigan guruhii pensiya dasturlarida qatnashishdan tashqari har bir amerikalik o'zining shaxsiy pensiya hisobini ham ochishi mumkin. Hisobni ochish va yuritish tartibi Amerika qonunlari ostida tartibga solinadi. Shaxsiy pensiya hisoblarga kiritiladigan yillik badallarning yuqori chegarasi 2000 doll. miqdorida. Hisobdagi mablag'larni 59,5 yoshga etgunga qadar echish mumkin emas, 79,5 yoshdan keyin esa hisob majburiy tarzda yopiladi. Hisob, shuningdek, bola tug'ilgandan keyin ochilishi ham mumkin. Hisobdagi mablag'larning jamg'arilish davrida undan hech qanday soliq

²⁰ AQSHda bu kabi jamg'arma pensiya dasturining ikki ko'rinishi mavjud: belgilangan to'lovlar bilan va belgilangan badallar bilan. Belgilangan to'lovlar dasturidagi to'lovlar ish beruvchi hisobiga bo'ladi va ishchi bu moliyalashtirishda ishtirok etmaydi. Biroq 1980-1990 yillarda iqtisodiyotning xususiy sektorida belgilangan badallarga ega boshqa dasturlar yuqori templarda o'sgan. Ushbu pensiya dasturlari odatda tadbirkorlar va yollanma ishchilar tomonidan teng miqdorda moliyalashtiriladi. Bunda har bir qatnashuvchi pensiya fondida o'zining personal hisobiga ega bo'lib, ularda kompaniya boshqaruvchilari tomonidan taqdim etiladigan turli investitsiondasturlardan tanlash huquqi mavjud. Shu tarzda u natijalargajavobgarlikni o'z zimmasiga oladi va muayyan darajada amalgaoshiriladigan pensiya to'lovlarini belgilaydi. Kompaniyaning har qandayishchisi xususiy pensiya dasturi qatnashchisi bo'lishi mumkin. Pensiyagahuquqni ushbu kompaniyada besh-o'n yil faoliyat yuritib kiritish mumkin.

undirilmaydi, lekin uni echish va yopish vaqtida yig`ilgan summadan daromad solig`i undiriladi. Shaxsiy pensiya hisobi, odatda, tijorat va jamg`arma banklarida, ulushli fondlarda va sug`urtakompaniyalarida ochiladi.

Ijtimoiy to`lovlarning asosiy instituti (pensiyaning ham hisobga olinganda) Social Security Administration, SSA hisoblanadi. AQSHda jamg`arma pensiya tizimlari to`g`ri tanlangan investitsion siyosat hisobiga o`zining moliyaviy rivojlanishini ta`minlash bilan bir qatorda iqtisodiyot rivojiga ham o`z ulushini qo`shishiga erishildi. Amerikaliklar o`z pensiya hisoblarida jamg`argan aktivlarning o`ndan biri ushbu summadan yillik 7foizli investitsiya daromadining o`zi bir necha o`n yillar davomida Rossiya pensionerlarini pensioner boshiga oylik 150 doll. miqdorida pensiya to`lovi bilan ta`minlagan bo`lar edi, bu esa inqirozdan keyingi darajadan 8 marta ortiq. Biroq muammolar ham yo`q emas. Kelajakda pensionerlar sonining oshishi bilan bir qator muammolar kelib chiqishi kuzatilmoqda. Rasmiy hisob-kitoblarga ko`ra, 2040 yilga kelib YAIMning AQSH ijtimoiy ta`minoti va sog`liqni saqlashga ajratilgan qismi uch barobardan ziyodga oshadi. Huddi shunday daraja Evropa mamlakatlarida ham kuzatiladi.

I bob bo`yicha xulosa

Pensiya tizimi – ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi organizm bo`lib, u jamoatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo`ljallangan. Pensiya tizimi ijtimoiy himoyaning muhim tarmog`i hisoblanadi. Pensiya tizimi o`z tarixiga ega. Ilk pensiya tizimi ko`rinishlari Germaniya(1880y.), Buyuk Britaniya (1960 y.), AQSH (1930 y.)da vujudga kelgan. Pensiya ta`minoti tizimi oldida uchta muhim maqsadlar turadi:

- fuqarolarni keksalik davrida kambag`allikdan himoyalash;
- fuqarolarning ish haqi mug`doriga mutanosib ravishda pensiya tayinlash;
- bu daromadning kelajakda turmush darajasini pasayishidan himoyalash.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi va aholining turmush sharoitining yaxshilanishi nafaqat demografik vaziyatni

keskinlashtirda, balki pensiya tizimiga ta'sirini o'tkazuvchi yangi faktorlarni keltirib chiqardi. Ularga tug'ilish qisqargansharoitda umr ko'rish uzunligining ortishi; pensiyaga vaqtli chiqish, ya'nimehnat davrining va badal to'lov davrining qisqarishi; mehnatga layoqatli aholi qatlamiga bog'liqlik (qaramlik) koeffitsientining oshishi kiradi.

Dunyoda pensiya tizimini moliyalashning ikki hil shakli mavjud:

- qayta taqsimlash pensiya tizimi. Bunda joriy pensiya xarajatlari joriy tushumlar hisobiga qoplanadi. Ushbu metod PAYG (pay-as-you-go) –“yurar ekansan, to'la” nomini olgan;

- jamg'arish metodi. Bunda mablag'lar mahsus fond (rezerv) tashkil etish uchun yo'naltiriladi va ushbu mablag'lar joriy va kelajakdagi pensiyaxarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi. Ko'p mamlakatlarga oid xususiyatga ko'ra, solidar tizim bo'yicha davlat pensiya sug'urtasiga sug'urta pensiya to'lovlari bir hilda taqsimlanishi hisoblanadi. Germaniyada ushbu ko'rsatkich bir hilda taqsimlangan – 19,4 foizdan ish beruvchi va ishchi zimmasiga tushadi, Buyuk Britaniya va Fransiya da ish beruvchilar ishchilarga nisbatan ko'proq to'lashadi, Irlandiya va Ispaniya da ish beruvchilarning sug'urta pensiya to'lovlari ishchilarga nisbatan bir necha barobarga oshib ketadi.

Amerika, Evropa va Yaponiya da umr ko'rish uzunligining oshishi bir hil darajada, biroq pensiya tizimidagi holatlar bir-biridan farq qiladi. Ushbu o'n yillikda mehnatga qobiliyatli aholi qatlami qisqarayotgan Yaponiya (yiliga 0,7 foiz) va Evropaning bir qator mamlakatlari (yiliga o'rtacha 0,3 foiz) dan farqli o'laroq Amerikada nisbatan yuqori tug'ilish darajasi tufayli bu ko'rsatkich o'sa boradi. Amerikada pensiya to'lovlari yukini Evropaga nisbatan ko'proq ishchilar bo'ynida bo'ladi. BMT prognoziga ko'ra, 2050 yilga kelib 65 yosh va undan yuqori bo'lgan aholi Germaniyada 60 foizni, Italiya da 62 foiz va AQSH da 35 foizni tashkil etadi.


II BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TA`MINOTI TIZIMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Avlodlar birdamligi prinsipiga asoslangan pensiya ta`minoti tizimi tahlili

Davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiyot va jamiyat islohotlaridagi ustuvor yo`nalish sifatida ijtimoiy yo`naltirilgan iqtisodiyotni tadbqiq etishdiki, bu keyinchalik kuchli ijtimoiy siyosat deb nomlandi. Bu vaqtda asosan sovet davridan qolgan rejali pensiya tizimi amalda bo`lib, u 1993 yilgacha saqlanib qoldi.

Ijtimoiy himoya va pensiya ta`minotiga jalb qilingan davlat mablag`larini jamlash, pul mablag`larini tezkorlik bilan nazorat qilish va samarali ishlatilishini ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 4 avgustdagi Qarori bilan Ijtimoiy sug`urta Fondi tashkil etildi. Bunga qadar faoliyat yuritib kelgan ittifoq Pensiya fondining O`zbek jumxo`riyati barcha vakolatlari va mablag`lari respublika ijtimoiy sug`urta Fondiga berildi(2.1-rasm). Bu vaqtga kelib sobiq Ittifoq Pensiya Fondi tomonidan mablag`lar kelishi to`xtatilgan bo`lib, to`lovchilardan tushadigan tushumlar asosan mustaqil O`zbekiston Respublikasi tomonidan milliylashtirilgan sobiq korxonalar va zavodlar tomonidan to`lanadigan tushumlardan shakllantirdilar. Bundan tashqari ijtimoiy sug`urta Fondiga ya`ni pensiya fondi xisobidan vaqtinchalik ishga layotqatsizlik, xomiladorlik va tug`ish, bola parvarishi va dafnga beriladigan to`lovlarga ajratilgan mablag`lar ham berilgan edi.

Bu davrdagi markazlashmagan pensiya fondining barcha respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog`iston Respublikasidagi ma`muriy bo`linmalarida amalga oshirilib, ular asosida ijtimoiy sug`urta Fondining vakolatli bo`limlarini tashkil etgan.



2.1-rasm. 1993 yildan 1996 yilga qadar O`zbekiston pensiya fondining boshqarish tizimi sxemasi²¹

Umumiy olganimizda, 1994-1996 yillardagi qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari shu davr uchun mos va zarur bo`lganligini ko`rsatadi. Davlat ijtimoiy sug`urtasi va pensiyalar uchun mablag`larning yig`ish va to`plash bo`yicha ishlar sezilarli darajada yaxshilandi, to`lovlarga qaratilgan xarajatlarni nisbatan to`liq mablag`lashtirilishi bilan bog`liq sharoitlar stabillashdi, tashkilotlardan hamda xodimlardan sug`urta to`lovlarning to`lanishi intizomi va ma`suliyati oshdi. Chet el kapitali ishtirokidagi qo`shma korxonalar va fuqarolarning yakka hamda jamoaviy mehnat faoliyati shakllari birinchi bor majburiy to`lovlar bilan jalb qilindi.

O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy sug`urta Fondining tuzilishi bilan bir vaqtda 1993 yil sentyabrida yangi “O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining pensiya ta`minoti to`g`risida”gi Qonuni qabul qilindi. Unda fuqarolarning pensiya ta`minotidagi konstitutsion kafolatlari, asosiy qonuniy asoslari hamda tamoyillari belgilab berildi.

²¹ Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: “Фан”, 2005. – С. 84.


Tashkil etilgan ijtimoiy sug`urta Fondining yangi tizimi mablag`larning yetishmasligi, inflyatsiyaning o`ssishi va ishlab chiqarishning kamayishi, fuqarolarning daromadlari pasayishi kuzatilayotgan og`ir sharoitida davlatning aholining himoyaga muhtoj qatlamlari oladigan ijtimoiy vazifalarini bajarishiga imkoniyat berdi.

Biroq, iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi, yangi mulkchilik shakllari va erkin xo`jalik munosabatlarining vujudga kelishi yo`sinida ijtimoiy sug`urta Fondiga sug`urta mablag`larini yig`ish, to`lovlarning to`liqligi va o`z vaqtida amalga oshirilishi, pul mablag`larini to`g`ri va samarali ishlatilishini nazorat qilish borasidagi asosiy vazifalarni bajarish brogan sari qiyinlashib bordi. Pensiya va to`lovlarning to`lash uchun mablag`larining yetishmasligi ancha sezilarli darajada bilina boshladi.

Dastlabki bosqichda sug`urta to`lovlarning ijtimoiy sug`urta Fondiga yig`ilishi bo`yicha ma`suliyat faqat Fondning o`zida bo`lgan bo`lsa, xarajatlarining hajmi, taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlari, pensiya va to`lovlarning qonuniy rasmiylashtirilishini asoslab berish, ularni hisobga olish, hisobotlarini tayyorlash va etkazib berishga 5-6 ta teng kuchli vazirliklar va muassasalar javobgar bo`lib, ularning yo`riknoma va ko`rsatmalari ba`zi xolatlarda bir-biriga zid bo`lar edi. Pirovard natijada fuqarolarga pensiya va to`lovlarni rasmiylashtirish va amalga oshirishdagi tezkorlik, nazorat va samaradorlik yuqolar edi.

Natijada 1996 yil 27 dekabr kuni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot vazirligi qoshida Pensiya Fondini tashkil etish to`g`risida”gi №459 sonli Qarori qabul qilindi (2.2-rasm).

Pensiya ta`minoti uchun majburiy to`lovlarning kelib tushishi va pensiya hamda to`lovlarning o`z vaqtida ishlatilishi O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot vazirligiga yuklatildi, Ijtimoiy ta`minot vaziri bir vaqtning o`zida Pensiya fondining Raisi vazifasini bajarishi belgilandi.



2.2-rasm. 1996 yildan 2000 yilga qadar O`zbekiston pensiya fondining boshqarish tizimi sxemasi²²


Bu O`zbekistonda pensiya ta`minotinig tashkiliy tuzilishi va ishlash tamoyillarini tubdan o`zgartirdi. Birinchidan, pensiya to`lovlarini moliyalashtirishning hajmlari va buyurtmalarini shakllantishirning ko`p bosqichli jarayonidan voz kechilib, pensiyalarni rasmiylashtirish va to`lash bitta idora - Ijtimoiy ta`minot vazirlikning vakolatiga o`tkazildi, bu esa pul mablag`larining harakatlarish jarayonini vaqt o`lchamida ancha qisqartirdi, hisobot ma`lumotlarining hakikiylik darajasini ko`tardi va to`lovlarning o`z vaqtida amalga oshirilishini ta`minladi.

Hukumatning ushbu qarori bilan Pensiya fondining mablag`lari ko`payishining quyidagi manbalari va kelib tushuvchi to`lovlarning qo`shimcha shakllari belgilab berildi: pensiya tizimini islohoti bilan bog`lik xalkaro shakldagi munosabatlarni amalga oshirishga va yolg`iz, nogiron hamda boshqa toifadagi fuqarolarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash buyicha davlat dasturlarini shartnoma

²² Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: “Фан”, 2005. – С. 87.

asosida mablag`lashtirishdagi tushumlar. Ushbu manbalar yolg`iz, kekxa va nogironlarning sanitar-kurort davolanishi bilan bog`lik turli tadbirlarga qo`shimcha mablag`larni ko`paytirishga imkon yaratdi. Chet el nodavlat fondlari tomonidan taqdim etilgan mablag`lar hisobiga pensiya fondi va ijtimoiy ta`minot tizimlarining kompyuterlashtirish dasturlari amalga oshirildi.

Pensiya fondiga korxonalar tomonidan ularning mulkchilikning shaklidan qat`iy nazar ish haqi fondidan to`lanadigan sug`urta to`lovlari birinchi bor 36 foizdan 37,3 foizgacha, fuqarolardan esa 1 foizdan 2,5 foizgacha ko`tarildi. Bundan tashqari, Pensiya fondining xarajatlaridagi defitsitni yopish uchun 1997 yil 1 yanvar kundan boshlab mulkchilikning shaklidan qat`iy nazar barcha korxona, tashkilot va muassasalardan ularning sotgan maxsuloti (xizmati)ning xajmidan, ulguji va chakana apteka muassasalaridan esa qo`shimcha umumiy daromaddan 0,5 foizli majburiy to`lovlar joriy qilindi. Pensiya fondi tarkibiy tuzilishining qayta tashkil etilishi hududiy miqyosida ham amalga oshirilib, Fondni boshqarish tizimini soddalashtirdi (2.3.-rasm).



2.3-rasm. 2000 yildan 2005 yilga qadar O`zbekiston pensiya fondining boshqarish tizimi sxemasi²³

²³ Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: “Фан”, 2005. – С. 89.


Shu bilan birga muddatdan avval nafaqaga chiqish uchun korxonalar tomonidan qoplanadigan mablag`larni, to`lov va nafaqa badallarini o`z vaqtida o`tkazmaslik uchun jarima sanksiyalari (peni) ko`tarildi. Bu tadbirlar Pensiya fondining pul mablag`larini sezilarli darajada to`planishiga olib kelib, nafaqa pullari va muxtojlariga to`lovlarini vaqtida mablag`lashtirishni ta`minladi. Birinchi bor 1997 yil 1 yanvardan boshlab Pensiya fondining pul mablag`lari ushbu fondning mablag`larini maqsadli shakllantirilishi va ishlatirishi saqlangan holda O`zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga ko`shilishi belgilab ko`yildi.

Bundan tashqari Pensiya fondini faoliyati uchun xarajatlari kamaytirilib, bir-birini qaytaradigan xizmatlar tugatildi.

2000 yilda sohaviy tizimlarining boshqaruvning yuqori bo`g`inlarida tub o`zgarishlar amalga oshirildi. Ko`p vazirlik va idoralari tugatilib, ularning vakolatlari hududiy boshqarish idoralariga umumiy va tashkiliy- yo`riqnomaviy yordam ko`rsatuvchi agentlik va assotsiatsiyalarga berildi. Boz ustiga Xalkaro valyuta fondi va Butunjahon Banki 1993 yildan 1999 yilga qadar davr ichida O`zbekiston hukumati va uning iqtisodiy muassasalariga bir necha bor Davlat budjetining bo`lingan qismlarini shakllantirishning sifatli va malakali nazoratini amalga oshirish uchun davlatning fiskal funksiyalarini bajaruvchi yagona muassasiga birlashtirish haqida tavsiyalar berdi.

Xalqaro valyuta tashkilotlarining bunday tavsiyalarini ijro etib O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000-yil 15 noyabr kuni «O`zbekiston Respublikasi pensiya ta`minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarorini qabul qildi. Unga binoan O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot vazirligi qoshidagi Pensiya Fondi 2001 yil 1 yanvaridan O`zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya Fondiga qaytadan tashkil etildi. Ushbu vaqtdan boshlab Pensiya fondining mablag`larning to`liq to`planishi va budjetdan tashqari Pensiya fondiga kelib tushishi bo`yicha nazorat vazifalari O`zbekiston Respublikasi Sog`lik qo`mitasiga, budjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarish, nafaqa to`lovlarining tushum va xarajatlarining yillik va chorak prognoz balanslarini shakllantirish, aholiga nafaka va to`lovlarni uz vaqtida hisoblash va

amalga oshirish esa qaytadan tashkil etilgan Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Mehnat va ijtimoiy himoya vaziri O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya Fondining mablag'larini bosh boshqaruvchisi, ushbu vazirlikning joylardagi hududiy idoralarining rahbarlari esa Pensiya fondining hududiy bo'limlarining mablag'larining boshqaruvchisi maqomiga ega bo'ldilar. Budjetdan tashqari Pensiya fondiga tushum hajmlarini shakllantirish bo'yicha umumiy koordinatsiyani olib borish, fond mablag'larining maqsadli va o'z vaqtida ishlatilishi yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi.



2.4-rasm. 2005 yildan boshlab Pensiya fondining boshqarish tizimi sxemasi²⁴

Majburiy pensiya to'lovchilarini qamrovini kengaytirishga qaratilgan maqsad va vazifalar to'laligicha ijro etilmadi. Bu sharoitda majburiy to'lovlarni yig'ish bo'yicha vakolatlarini Pensiya fondidan Soliq qo'mitasiga o'tkazilishi o'zini oqlamadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 21 oktyabr kunidagi "Budjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya

²⁴ Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: "Фан", 2005. – С. 91.

fondi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya fondiga o'tkazildi.

Pensiya fondiga majburiy ajratmalar va badallar yig'ish huquqi bilan bir qatorda ixtiyoriy ravishda to'laniladigan dehqon xo'jaligi sug'urta badallarini yig'ish va birinchi marta soliqdan ozod bo'lib kelgan moliya bozoridagi Pensiya fondining ortiqcha mablag'larini joylashtirilishidan protsent ko'rinishidagi foydaga ega bo'lish kabi qo'shimcha huquqlar ham yuklatildi. Bu Pensiya fondiga Moliya Vazirligi bilan kelishilgan holda Fondning pul mablag'larini boyitishda qo'shimcha mablag' bo'la oladigan bo'sh pul mablag'larini mustaqil joylashtirish huquqini berdi. Ushbu Qaror bilan, shuningdek, Pensiya fondining barcha xarajat va daromadlari O'zbekiston Respublikasi konsolidar budjet qismiga kiritilishi belgilab berildi.

Pensiya fondining barcha joriy hisoblari tiklandi va Ijtimoiy himoya mehnat Vazirligi hisobidagi mablag'lar Pensiya fondi hisobiga o'tkazildi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimi islohotidagi islohotlar bosqichlarida 1996-2004 yillar oralig'ida ijtimoiy siyosatning ushbu sohasida samarali islohotni olib borish uchun zaruriy moliyaviy, qonuniy huquqiy va tashkiliy baza yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004 yilda qabul qilingan "Fuqarolarning jamg'arish pensiya taminoti to'g'risida"gi Qonuni muhim hisoblanadi. Unga ko'ra, 2005 yildan boshlab O'zbekistonda amaldagi davlat pensiya taminoti tizimiga qo'shimcha ravishda jamg'arish pensiya sug'urta taminoti ham kiritilgan. Shuni qayd etish lozimki, davlat va jamg'arish pensiya tizimlari bir birini to'ldirib bormoqda²⁵.

Pensiya Fondidagi majburiy ajratmalar pul massasi pensioner hamda nafaqa oluvchilarga etgunga qadar besh turdagi o'nta asosiy va tranzit hisoblardan o'tadi: Soliq Komiteti, Moliya Vazirligi, Mehnat va Ijtimoiy Himoya Vazirligi, Bank tizimi va "O'zbekiston Pochtasi" tuzilmasidan. Bundan tashqari, Moliya Vazirligi

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 11 fevraldagi "Nodavlat Pensiya tizimini boshqarishning kelajakdagi takomillashtirivi to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq.

va Mehnat va ijtimoiy himoya Vazirligi tomonidan tranzit hisoblari orqali viloyat va rayonlar aro doimiy moliyaviy yordamga muhtojlarga pul mablag`larini operativ taqsimlanadi.

Har oyda yig`ish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari uchun 23 kundan 30 kungacha vaqt ketadi, bu davr orvlig`ida esa pensiya to`lovlarini vaqtida etkazilishini taminlash maqsadida besh vedomostning 60 mingdan ziyod ishchilari yuqoridagi moliyaviy operatsiyani amalga oshiradi²⁶.

Ushbu operatsiyalarning ozgina ushlanishi yoki muayyan noaniqliklar pensiya to`lovlarini 10 – 20 kungacha kechikishiga olib keladi.

Hozirda pensionerlar o`zlarining hujjatlarini budjetdan tashqari pensiya jamg`armasi tuman bo`limlariga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to`lash tartibini yanada takomillashtirishga yo`naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to`g`risida”gi Qaroriga asoslangan Yo`riqnomaga binoan taqdim etishadi.


Prezidentimizning 2009 yil 30 dekabridagi “Fuqarolarning pensiya ta`minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmonida Pensiya jamg`armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o`z vaqtida, to`liq miqdorda moliyalashtirish, tovarlar ustidan monitoring yuritish, pensiya ta`minotiga yo`naltiriladigan mablag`larning maqsadliligi va nazoratni kuchaytirish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, 2010 yildan boshlab, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to`lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan budjetdan tashqari pensiya jamg`armasi hududiy bo`linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur jamg`arma – uning Ijro etuvchi apparati, Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta hududiy boshqarmasi hamda 196 ta tuman (shahar) bo`limidan iborat tashkiliy tuzilmaga ega. Bu tizimda hozirda 4 mingdan ortiq kishi mehnat qiladi. SHuningdek, jamharmaga tibbiy-mehnat ekspertizasi faoliyatini tashkil etish vazifasi ham yuklatilgan bo`lib, respublika tibbiy ijtimoiy ekspertizasi

²⁶ O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya Vazirligining 2004 yilga bergan moliyaviy hisoboti ma`lumotlari. Toshkent, 2005.

tizimini takomillashtirish maqsadida 108 ta Bosh, tumanlararo, tuman (shahar) TMEKlari tashkil etildi hamda ular yuqori malakali kadrlar bilan butlandi²⁷.

1993 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni pensionerlarning moddiy farovonligini oshirishda muhim huquqiy asos boʻlib xizmat qilmoqda. Mazkur Qonunga 2011 yil 1 yanvardan tegishli oʻzgartirishlar kiritilib, oʻz ahamiyatini yoʻqotgan ayrim imtiyozlar va mehnat faoliyatining alohida davrlarini ish stajiga hisoblash mexanizmlari optimallashtirildi. Endilikda yoshga doir pensiyalarni tayinlashda mehnat stajining eng kam quyi chegarasi belgilab qoʻyildi.



**2.5-jadval. 2008-2014 yillardagi byudjetdan tashqari
Pensiya jamgʻarmasi daromadi va xarajatlari dinamikasi²⁸**

2012 yil 6 yanvardan kuchga kirgan “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Qonunida fuqarolar pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan oʻtgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibda asosan qayta hisoblanishi nazarda tutilgan.

²⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamgʻarmasi faoliyati natijalari va fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti tizimini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida maʼlumot. T. – 2012 y

²⁸ www.pfru.uz. sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2011 yil 8 sentyabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi Qarorga muvofiq tasdiqlangan pensiya tayinlash va to’lash jarayonini tartibga soluvchi yagona nizom amaliyotga keng joriy etilmoqda.

Prezidentimizning 2010 yil 24 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan Pensiya jamg’armasining 2014 yilgi daromadlarining aniqlashtirilgan prognoz ko’rsatkichlari to’liq bajarilishi ta’minlandi. Natijada 2015 yil uchun budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromatlari tushumi 12 419 mlrd so’m, xarajat qismi 12 996 mlrd so’m. Daromad ko’rsatkichlarining muntazam ravishda bajarilishi jamg’armaning aylanma mablag’lari qoldig’i miqdorining oshirish imkonini berib, bu o’z navbatida, pensiya va nafaqalarni belgilangan muddatlarda kafolatli moliyalashtirish uchun zarur mablag’larni shakllantirmoqda. 2015 yil 1 yanvar holatiga ko’ra, jamg’armaning aylanma mablag’lari qoldig’i har oylik xarajatlarning 70 foizini moliyalashtirish imkonini beruvchi miqdorni tashkil etmoqda²⁹.

2012 yil uchun budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga tushumlarni ko’paytirish choralari faqatgina ishlovchilarning sug’urta badallari stavkasini oshirishga qaratilgan. Ya’ni, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2012 yil uchun qabul qilingan Davlat budjeti parametrlariga muvofiq, ishlovchilarning majburiy sug’urta badallari stavkasini 4,5 foizdan 5,5 foizgacha ko’tarish ko’zda tutilgan. Bunda mehnatga haq to’lash jamg’armasidan ajratmalar stavkasi o’zgarishsiz – 25 foiz miqdorida qoldirildi (2.1-jadval).

Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining 196 ta tuman (shahar) bo’limi tomonidan 2011 yilda 139 ming nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari ko’rib chiqilib, pensiya va nafaqalar tayinlandi.

²⁹ www.pfru.uz, sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.1-jadval

2008-2015 yillarda yagona ijtimoiy to'lov va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari stavkalarining o'zgarishi (foizlarda)³⁰

Yillar	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Yagona ijtimoiy to'lov	24	24	25	25	25	25	25	25	25
Shu jumladan pensiya jamg'armasiga ajratma	23,5	23,6	24,8	24,8	24,8	24,8	24,8	24,8	24,8
Fuqarolarning majburiy sug'urta badali	2,5	3,5	4,0	4,5	5,5	6,0	6,5	7	7,5
Tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hajmidan pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma	1,0	1,0	1,5	1,5	1,6	1,6	1,6	1,6	1,6

Quyidagi keltirilgan 2.2-jadvalda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibi va tuzilishi³¹
(mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	summasi	ulushi	summasi	ulushi	summasi	ulushi	summasi	ulushi
Daromadlar	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0
Yil boshiga qoldiq	280,1	3,5	602,2	8,8	1067,3	8,2	2592,0	15,7
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan tushumlar	4799,2	59,5	5907,4	51,7	7299,5	56,1	8324,2	50,3
Fuqarolarning majburiy badallari	1110,2	13,8	1482,7	14,4	1877,2	14,4	2463,8	14,9
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1401,5	17,4	1591,3	15,4	1933,0	14,9	2063,8	12,5
Boshqa daromadlar	474,4	5,8	718,5	9,7	836,7	6,4	1113,1	6,7

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi faoliyati natijalari va fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012, 2013, 2014, 2015, 2016 yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va budjet parametrlari to'g'risidagi Qarorlari (PQ-1675, PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455) asosida muallif tomonidan umumlashtirildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Pensiya jamg'armasining daromadlari yildan-yilga oshib bormoqda. Yillar kesimida ko'radigan bo'lsak 2012 yilda jamg'armaning daromadi 8065,4 mlrd. so'mni bo'lgan bo'lsa, 2016 yilga kelib Prezidentimizning PQ-2455-sonli Qaroriga ko'ra jamg'arma daromadlari 18113,3 mlrd. so'mga yetkazilishi belgilangan. Bu esa jamg'arma daromadlarining 2012 yilga nisbatan 2016 yilda 1,2 barobar oshayotganligidan dalolat beradi. Daromadlar tarkibida yuqori ulushga ega bo'lgan manba albatta ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan tushumlar tashkil etayotganligini jadval ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin. 2015 yildan mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona ijtimoiy to'lovnig 25 foizdan 15 foizga tushurilishi ham bu ko'rsatkichga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmadi.

Quyida keltirilgan jadvalda (2.3-jadval) Pensiya jamg'armasining 2012-2015 yillardagi xarajatlari tarkibi va tuzilishi tahlil qilingan.

2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi va tuzilishi³², mlrd. so'mda

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%
Xarajatlar	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0
Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlari	7246,0	89,8	9097,9	88,3	11191,9	86,0	12838,1	77,5
Ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlari	290,9	3,6	317,4	3,1	426,6	3,3	474,8	2,9
Qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, bola tug'ilganlikda, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	12,8	0,6	20,5	0,2	29,1	0,2	105,2	0,6
Boshqa xarajatlar	1,8	0,02	2,1	0,0	2,4	0,0	2,8	0,0
Yil oxiriga qoldiq	513,9	6,4	864,2	8,4	1363,7	10,5	3136,1	19,0

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012, 2013, 2014 va 2015 yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va byudjet parametrlari to'g'risidagi Qarorlari (PQ-1675, PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455) asosida muallif tomonidan umumlashtirildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Pensiya jamg'armasining mablag'lari asosan ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi, xususan, 2012 yilda bu maqsadlarga fond mablag'larining 89,8 foizi, 2013 yilda – 88,3 foizi, 2014 yilda 86,0 foizi, 2015 yilda 77,5 foizi, 2016 yilda esa 81,6 foizi yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlari tahlil qilinayotgan yillarda o'rtacha 3,6-2,6 foizni ya'ni yildan-yilga kamayish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

Qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar ulushi yildan yilga kamayish tendentsiyasiga ega (2012 yildagi 0,6 foizdan 2014 yildagi 0,2 foizga). Buning asosiy sababi, pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq bo'lib, avval Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan bir qator nafaqa va to'lovlarning davlat budjetiga o'tkazilishi Pensiya jamg'armasiga pensiyalarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan bosimni birmuncha kamaytirdi. Ammo, yana o'sishni boshlaganini ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, davlat mablag'larining samarali boshqarilishi natijasida Pensiya jamg'armasiga oxirgi yillar ichida davlat budjetidan dotatsiya berib borish amaliyotidan voz kechildi, bunga jamg'armaning yil oxiridagi qoldiq summalarining mavjud bo'layotganligi ham guvohlik bermoqda. Jadvaldan ko'rinib turganidek, bu mablag'lar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan xarajatlarning 2016 yil prognozlari bo'yicha 14,9 foizni tashkil qilishi prognoz qilingan. Lekin byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromad va xarajatlari o'rtasida vaqtinchalik kassaviy uzilishlar yuzaga kelgan taqdirda Moliya vazirligi tomonidan bu kassaviy uzilishni qoplashga byudjet ssudalari berilishi mumkin. Byudjet ssudalari olingan taqdirda yil oxiriga kelib chiqadigan qoldiq summa orqali yopiladi.

2014 yil davomida 3119 mingdan ziyod fuqarolarga pensiya va nafaqalar bo'yicha xarajatlar o'z vaqtida (har oyning 22 sanasiga qadar) moliyalashtirib berishi tayinlandi. Pensioner va nafaqa oluvchilarning 71 foizi yoshga doir, 15

foizi nogironlik bo'yicha, 8 foizi ijtimoiy nafaqalar va 6 foizini boquvchisini yo'qotganlar tashkil etadi (2.4-jadval).

2.4-jadval

O'zbekiston Respublikasidagi pensiya va nafaqa oluvchilar soni (2014 y.)³³, ming kishi

Pensiya turlari	2013 yil	2014 yil
Yoshga doir	2447,7	2496,8
Boquvchisini yo'qotganlik	250,4	242,2
Nogironlik	391,9	380,5
Umumiy	3090,9	3119,5

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish darajasi 73 yil hisoblandi. Erkak kishi 60 yoshda pensiyaga chiqqanda - o'rtacha 13 yil pensiya oladi. Ayol kishi 54 yoshida pensiyaga chiqqanda - o'rtacha 18 yil pensiya oladi. Mamlakatimiz aholisi sonining yildan-yilga o'sib borayotganligini qayd etish muhimdir. Biroq aholi sonining o'sishi uning munosib turmush darajasini ta'minlash va pensiya ta'minoti borasida ham muayyan mas'uliyatni keltirib chiqaradi. Bulardan asosiysi – yaxshi hayot kechirish uchun pensiya olib, yetarli daromad hajmiga ega bo'lishi kerak.

2.2. Fuqarolarning jamg'arilib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi tahlili

Bozor iqtisodiyotining eng muhim shartlaridan biri har bir shaxsning o'z manfaatlarini birinchi navbatda himoya qilishi, o'z imkoniyatlarini ifodalashidir. Davlat fuqarolar o'z turmush darajalarini oshirishlari uchun ularga tegishli qonunlar tizimi orqali zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishi va ularning bu boradagi intilishlarini qo'llab-quvvatlashi lozim. Bozor munosabatlari rivojlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o'rtasidagi o'zaro nisbat o'zgarib borgan sari bu ikki omil, albatta, ijtimoiy ta'minot tizimiga o'z ta'sirini

³³ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi faoliyati natijalari va fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot. Manba: www.stat.uz

ko'rsatishi kerak. Jahon tajribasida pensiya ta'minotini moliyalashtirish va boshqarish mexanizmining uch hil turi ko'p uchraydi.

Barcha mamlakatlarda keng tarqalgan joriy tushumlardan moliyalashtiriladigan davlat transfert dasturlarini amalga oshirish.

Ixtiyoriy va majburiy shaxsiy jamg'arma rejalarini amalga oshirish (ixtiyoriy yakka jamg'armalar barcha mamlakatlarda mavjud soliq rag'batlari bilan mustahkamlanadi, bunda ishlovchilar va pensionerlar o'z jamg'armalari bo'yicha investitsion tavakkalchilikka yo'l qo'yadi).

Iqtisodiy inqirozdan inflyatsiyadan, jamg'armalarni yo'qo-tishga va qadrsizlanishga olib keladigan investitsion risklardan himoya qiladigan sug'urta tizimini rivojlantirish.

Mamlakatimizda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir degan xulosaga kelish mumkin.

Respublikamizdagi aholining ijtimoiy ta'minotini kuchaytirish hamda pensionerlarning farovonligini qo'shimcha ravishda oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-sonli qaroriga binoan «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan quyidagilar belgilandi:

- 2005 yil 1 yanvardan boshlab amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi;

- 2005 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqami fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi;

- fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamiga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan

holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromad)ning bir foizi miqdorida amalga oshirish;

– jamg`arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida qatnashadigan fuqarolar tomonidan shaxsiy pensiya hisob raqamlariga badallar miqdori va to`lash muddatlari mustaqil ravishda belgilanishi va boshqalar.

Shuningdek, jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti mablag`larini ko`paytirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Markaziy bank boshqaruvining 2006 yil 7 oktyabrdagi 88-son va 282-V-son qarori bilan “Jamg`arib boriladigan Pensiya tizimi mablag`larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to`g`risida”gi Nizomi tasdiqlandi. Ushbu Nizom O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti to`g`risida”gi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo`lib, jamg`arilib boriladigan pensiya tizimi mablag`larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi. Ushbu mablag`lar O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Markaziy banki nomidan Xalq banki tomonidan omonatchilarning manfaatlarini ko`zlagan holda o`z huquq va majburiyatlarini amalga oshiradi va Nizom asosida boshqariladi.

Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo`lmaydi, ularni respublikamizda boshqa islohot-lar bilan jumladan, mehnat bozoridagi, soliq tizimidagi, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshi-rish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo`yicha islohot-larni amalga oshirishda milliy urf-odatlarimiz, oilalarga, qa-riyalarga yordam e`tiborga olinishi kerak. Pensiya tizimini moliya-lashtirishda Davlat budjetidan moliyalashtirish saqlanib qoli-nishi lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni har tomonlama mukammal dasturlar orqali amalga oshirish maq-sadga muvofiq bo`ladi. Islohotlarning bu dasturlari pensiya yoshidagi qariyalarni daromadlarini kafolatlashning samarali mexanizmiga tayanishi zarur³⁴.

³⁴ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta`minoti (o`quv qo`llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. 108-b.

Pensiya jamg'armalarining mohiyatini belgilashda uch yondashuv ko'rsatiladi, ya'ni uning ijtimoiy ta'minot uchun mo'ljallangan mablag'lar ekanligi; mustaqil moliya-kredit tashkiloti; ijtimoiy yo'nalishdagi budjetdan tashqari jamg'arma ekanligi e'tirof etiladi.

Pensiya jamg'armalarini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning majburiy va ixtiyoriy jamg'arma badallari, dav-latning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi va muayyan jamg'arma tashkil etgan aholi toifalariga to'lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog'liq bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

To'lovlarni olishga qat'iy ishonch ishlovchini mehnat unumdorligini oshirishga intilishini susaytiradi, degan g'oyalar asosli emas. Ishlovchilarning pensiya jamg'armasiga to'lovlari, iqtisodiy nuqtai nazardan ularning ish haqining bir qismidir. U kishi kuchining qiymatiga kiradi, ammo to'lovlar institutsional muayyan kechiktirilgan muhlatda amalga oshiriladi. Bu ishlovchilarning pensiya jamg'armasiga qo'ygan va qaytarilishi lozim bo'lgan o'ziga xos maqsadli ulushi, omonatidir. Yollanma ishlovchini samarali mehnatga undovchi sabablarning yuqori darajasi bir tomondan, pensiya miqdorining tegishli yashash minimumiga nisbati, pensiya to'lovlarining xarid imkoniyatiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ishlovchining malaka darajasi ishlagan davrlari mobaynida mehnat faoliyatining intensivligi darajasiga bog'liqdir. Pensiya miqdorining mehnat faoliyati mobaynida oladigan ish haqi miqdori bilan bevosita bog'liqligi samarali mehnatga rag'batlantirish imkonini beradi. Bu o'rinda muayyan qonuniyatni aniqlash mumkin, ya'ni pensiya tizimi orqali himoyalash darajasi fuqaro-larning

individual moliyaviy ishtirokiga to'g'ri, daromadlarni qayta taqsimlash darajasiga teskari mutanosiblikda bo'ladi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg'arish yoki ishlovchilar ish haqining bir qismini badal ko'ri-nishida pensionerlar foydasiga undirish pensiya to'lovlari man-baining ishonchli asosini ta'minlaydi. Bu imkoniyat nafaqat emissiya yo'li bilan, balki ijtimoiy siyosat doirasida zaruriy hollarda ish haqi miqdorini joriy ishhaqi va pensiya ajrat-malariga taqsimlashga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bi-lan amalga oshirilishi mumkin. Tatbiq etilayotgan avlodlar bir-damligi qayta taqsimlash tamoyiliga asoslangan bo'lib, pensiya tizimi ishlovchilarning tegishli moliyaviy muassasalarga xususan, jamg'ariladigan pensiya jamg'armalariga mablag'lar qo'yishini inkor etmaydi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga badallarni qayta taqsimlashning davlat mexanizmi yordami bilan individuallashtirilgan hisobraqamlardan foydalangan holda, moliyaviy ta'minlash, pensiya tizimini tashkil etishning o'ziga xosligi, belgilan-gan yagona badallarni hisobga olib, pensiya miqdorini belgilash kabilar xosdir. Jamg'arib boriladigan pensiyani olish uchun muayyan jamg'arma stajiga ega bo'lish va qonunda ko'rsatilgan pen-siya yoshiga etish zarur. Jamg'arish tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida badallar kapitallashtiriladi va pensiya hisobi indi-vidual hisob asosida shakllantirilib boriladi, shaxsiy hisob-larda jamg'arilgan jamg'arma badallari pensiya darajasini bel-gilaydi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimlari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta'minlash imkoni-ni beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada pensiya to'lovlari ishlovchilarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan, balki, mehnat faoliyati mo-baynida to'langan badallari miqdoriga foizni ifoda etadi.

Bir martalik qayta taqsimlashda pensiya tizimidan farqli ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida jamg'arma badal-lari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi-ning qo'llanishi mavjud pensiya tizimidagi kamchiliklarni kamay-tirish va

uning afzalligini kuchaytirishga yo`naltirilgandir. Bunday tarkibni umumlashgan uch darajali tizim shaklida tasavvur qilish mumkin:

- davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va maj-buriy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog`liq bo`ladi, ish beruvchi va yollanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliya-lashtiriladi;

- majburiy jamg`arma tizimi orqali beriladigan va minimal jamg`arma stajini “to`plagan” kishilar uchun davlat budjeti dotatsiyasidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi.

Umumdavlat moliyasi tarkibidagi bug`inlar ichida davlat budjetidan keyin hajmi va iste`molchilarni qamrab olish ko`lami hamda ijtimoiy ahamiyati bo`yicha ikkinchi o`rinda turadigan markazlashgan jamg`armalardan biri bu budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasida budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga dastlab O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrda “O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta`minot vazirligi xuzurida Pensiya jamg`armasini tashkil etish to`g`risida”gi 459-sonli qaroriga muvofiq asos solingan. Har bir yangi tashkil etilgan markazlashgan jamg`arma oldiga muayyan maqsad qo`yilgani bois, ushbu jamg`arma oldiga ham zarur maqsad qo`yildi. Jumladan: “Budjetdan tashqari pensiya jamg`armasining bosh maqsadi – davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta`minoti tizimida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, daromadlarga mo`ljallangan majburiy badal, yig`im va ajratmalarni to`liq yig`ilishini ta`minlash, shuningdek, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun moliyalashtirish chora-tadbirlarini o`z vaqtida va to`liqligicha ta`minlashga erishish”.

Pensiya jamg`armasi ma`lumotlariga e`tibor qaratadigan bo`lsak, hozirgi kundagi Pensionerlar soni – 2,8 mln. nafar, nogironlar soni 812 ming nafar: shular jumlasidan, bolalikdan nogironlar 235 ming nafar, nogiron bolalar 122 ming nafar, o`zgalar yordami va qaromog`iga muxtoj yolg`izlar 30 ming nafarni tashkil etmoqda. Ushbularni ijtimoiy himoya qilish va adresli yordam berish o`z navbatida, budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi tashkil etishga asos bo`ladi.

Bundan tashqari 1995 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1289 –sonli Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonda ko'zda tutilgan masalalar shundan iboratki, 1996-yil 1 yanvardan boshlab, ishlayotgan, xizmat ko'rsatayotgan va ish bajarayotgan pensionerlar uchun mo'ljallangan, belgilangan pensiya ning 50 foizi to'lanishi nazarda tutilgan. Ammo, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari yoxud shularga tenglashtirilganlar, 1-2 gurux nogironlari, Chernobil katastrofasini bartaraf etishda ishtirok etib ishlayotgan pensionerlar bunday tadbirdan mustasnodir. Ular belgilangan pensiyalarini to'liq 100 foiz miqdorda olishi belgilangan. “Baribir, g'azna majburiyatining oxirgi egalari uchun foyda tomoni g'azna majburiyatini soliqdan ozod qilishga almashtirishdir. G'azna majburiyati egalarining g'azna majburiyatlarini soliqdan ozod qilishga almashtirish to'g'risidagi arizasiga binoan arizachilar soliq to'lash bo'yicha (jarima va penyalar qo'llanilmaydi) muddat oladi. G'azna majburiyatlari yordamida turli soliqlarni, jumladan, davlat budjetiga to'lovlarni to'lash, shuningdek, ulardan pensiya fondiga to'lovlar sifatida foydalanish mumkin”³⁵.

2004 yil 21 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 490-sonli “Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi boshqaruvini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, Pensiya jamg'armasi 2005 yil 1 yanvardan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi maqomini oldi. Shuningdek, qaror bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqaruv kengashi va ularning tarkibi ham belgilab qo'yildi.

Boshqaruv kengash tarkibigi quyidagi vazirlik va idora rahbarlari yoki ularning muovinnlari kiritilgan. Jumladan:

- Kengash raisi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri;
- Kengash raisi muovini, O'zbekiston Respublikasi Mexnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;

A'zolar: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi; O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank raisining muovini; “Xalq banki” boshqaruvi raisi;

³⁵ Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g'arnachilik tizimi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2008. 319-b.

“O‘zbekiston pochta” OAK bosh direktori; “Nuroni” respublika jamg‘armasi boshqaruvi raisi.

Qayd etilgan qarorga muvofiq, Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini tezkor muvofiqlashtirib turuvchi Ijrochi direksiyasi tasdiqlangan. Ijrochi direktor va uning tarkibidagi personallar funksional majburiyati quyidagicha taqsimlab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta‘minotga va ijtimoiy sug‘urtaga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish; O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi va Toshkent shahar ijtimoiy ta‘minot bo‘limlarining maxsus, maqsad-li, budjetdan tashqari hisobraqamlarida davlat ijtimoiy sug‘urta-siga majburiy badallar va ajratmalarni jamlash; qonun hujjatlariga muvofiq pensiyalar va ijtimoiy nafa-qalar, shuningdek, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar to‘lashga xarajatlarni malag‘ bilan ta‘minlashdan iborat.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchisi bo‘lgan fuqarolar quyidagi huquqlarga egadir³⁶:

- yilda bir marta bepul, shuningdek istalgan vaqtda o‘z so‘rovi bo‘yicha uning SHJBPH da bo‘lgan ma‘lumotlarni Xalq bankining filialida olish;
- istalgan vaqtda o‘z so‘rovi bo‘yicha ish beruvchidan ish beruvchi tomonidan Xalq bankining filialiga shaxsiy hisobini yuritish uchun taqdim etilgan ma‘lumotlarning nusxasini olish;
- uning SHJBPH da bo‘lgan ma‘lumotlar, jumladan hisobga kiritilgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining summasidan norozi bo‘lgan holda, ish beruvchiga, Xalq bankiga yoki sudga ushbu ma‘lumotlarni tuzatish uchun murojaat qilish;
- qonunchilikka muvofiq davlat nafaqasini olish huquqi yuzaga kelganda jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olish;

³⁶ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta‘minoti (o‘quv qo‘llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. 104-b.

– qonunchilikka muvofiq shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobraqamidagi jamg`armalarini meros qoldirish.

Jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti qatnashchisi bo`lgan fuqarolarning majburiyatlari: jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida o`z vaqtida shaxsiy hisobda turish; ish beruvchiga yoki Xalq bankining filialiga uning SHJBPH da bo`lgan ma`lumotlarning o`zgarishi to`g`risida, shuningdek jamg`arib boriladigan pensiya daftarchasining yo`qotilishi to`g`risida o`z vaqtida bildirish; jamg`arib boriladigan pensiya daftarchasini tegishli tartibda saqlash.

Jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida ishtirok etuvchi yuridik shaxslarning - ish beruvchilarning huquqlari va majburiyatlari

Ish beruvchining huquqlari: jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimining ishtirokchilaridan ularni ishga qabul qilishda jamg`arib boriladigan pensiya daftarchasi va ShJBPH ni taqdim etishni talab qilish; jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida hisobda turmagan xodimlardan ma`lumotlarni taqdim etishni talab qilish; tegishli organlar bilan kelishuvga binoan, jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida ishtirok etuvchi shaxslar to`g`risida o`zi taqdim etgan ma`lumotlarni to`ldirish va aniqlash; O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlaridan fuqaroning identifikatsiyalash raqami (shaxsiy kodi) to`g`risida ma`lumotlarni so`rash va olish.

Ish beruvchining majburiyatlari: belgilangan muddatda Xalq bankiga jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida ishtirok etuvchi shaxslar to`g`risida ma`lumotlarni taqdim etish; o`z manzili bo`yicha xodimlarning jamg`arib boriladigan pensiya daftarchalarini olish va ularning qonunchilik bilan belgilangan tartibda xodimlarga berilishini ta`minlash; xodimning talabiga binoan Xalq bankiga xodimning ShJBPH ga o`tkazilgan badallarning summasi to`g`risida taqdim etilgan ma`lumotlarning nusxalarini bepul berish; xodimga berilgan jamg`arib boriladigan pensiya daftarchasining rekvizitlari xodimning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlariga muvofiqligini nazorat qilish.

Ish beruvchilarning, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg`arib boriladigan pensiya tizimida

ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo`lsa, majburiydir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo`jaliklarining a`zolari, shuningdek boshqa fuqarolar jamg`arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig`ining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg`arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to`lab boradi.

Jamg`arib boriladigan majburiy pensiya badallarining miqdori xodimlarning, shu jumladan ishlayotgan pensionerlarning ish haqi va boshqa daromadi summasi asosida hisoblab chiqariladi hamda har yili O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan navbatdagi yilga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasi Davlat budjetini shakllantirish vaqtida belgilanadi.

Ish beruvchiga o`zining mablag`lari hisobidan o`z xodimlarining shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo`shimcha badallar to`lash huquqi beriladi. Qo`shimcha badallarning miqdori va ularni kiritish muddatlari jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma tuzilmagan bo`lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishib belgilanadi.

Ish beruvchi jamg`arib boriladigan majburiy pensiya badallarini to`lashi uchinchi shaxslarning foydasiga amalga oshirilishi mumkin emas.

Jamg`arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolar o`z shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, shuningdek uchinchi shaxslar foydasiga o`zlari mustaqil ravishda belgilaydigan miqdorlar va muddatlarda qo`shimcha badallar kiritishga haqli.

Jamg`arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolar o`z shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, shu jumladan uchinchi shaxslar foydasiga kiritiladigan badallar miqdori va muddatlarini o`zlari mustaqil ravishda belgilaydilar.

Xalq banki shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag`larga pul qadrsizlanishiga nisbatan yuqori sur`atlardagi stavkalar bo`yicha

foizlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblab qo`shadi. Foiz stavkasi Xalq banki tomonidan O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib, jamg`arib boriladigan pensiya tizimining mablag`larini joylashtirishdan olingan daromadlar hisobga olingan holda belgilanadi.

Jamg`arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg`arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma`lumotlarni taqdim etishlari hamda fuqarolarning shaxsiga oid ma`lumotlar bilan bog`liq barcha o`zgarishlar (mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagi ma`lumotlar hamda shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma`lumotlar o`zgarganligi) to`g`risida xabar qilishlari shart.

Ish beruvchilar shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o`z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg`arib boriladigan pensiya badallari to`g`risidagi ma`lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart.

Jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga qo`yish ularning asosiy ish joyiga ko`ra Xalq banki filialida ish beruvchining arizasi asosida amalga oshiriladi.

Jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga qo`yish ularning yashash joyiga ko`ra Xalq banki filialida berilgan arizasi asosida amalga oshiriladi. Hisobga qo`yish uchun ish beruvchi Xalq bankiga xodimning pasport ma`lumotlari asosida to`ldirilgan xodim anketasini taqdim etadi. Jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti tizimida ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchi fuqarolar o`z arizasi va o`z qo`li bilan to`ldirilgan anketasi asosida hisobga qo`yiladi. Hisobga qo`yilishi uchun fuqaro yashash manziliga ko`ra Xalq bankining filialiga mustaqil ravishda murojaat qilishi lozim.

Fuqaro o`z yashash joyini, ish joyini o`zgartirganda yoki pasport ma`lumotlari o`zgarganda, shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisobraqamining

raqami o'zgarmasdan qoladi va yangi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamining ochilishi talab etilmaydi.

2.5-jadval

O'zbekiston Respublikasi Xalq Bankidagi ochilgan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari soni. (ming dona)³⁷

Ko'rsatkich	Yillar								
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Hisobvaraqlar soni (yil oxirida)	4085	4726	5411	5586	5988	6469	7083	7685	8205

Jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari 2005- yilga kelib ochila boshlagan bo'lib, 2005 yil oxirida hisobvaraqlar soni 4085 ming donani tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilga kelib bu ko'rsatkich 8205 ming donani tashkil etmoqda.

2.6-javdal

O'zbekiston Respublikasi Xalq Bankdagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'lar qoldig'i, mlrd so'm³⁸

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Mablag'lar qoldig'i (yil oxiriga)	18,9	50,8	99,7	173,4	274,6	404,6	578,9	802,4	1087,0

Bu jadval orqali shuni ko'rish mumkin, O'zbekiston Respublikasida Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida jadallik bilan rivojlanmoqda. Agar shu pensiya tizimi yanada takomillashtirilsa, kelajakda O'zbekistonda bir – birini to'ldiruvchi ikkita mustahkam pensiya tizimiga ega bo'lamiz.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ba'dallar majburiy va ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Agar ba'dallar majburiy ravishda qo'yilsa, quyidagi foiz stavkalarda amalga oshiriladi.

³⁷ “Pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferentsiyasidagi Xalq banki vakili ma'lumotidan 2014 yil 21 noyabr Toshkent.

³⁸ “Pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferentsiyasidagi Xalq banki vakili ma'lumotidan 2014 yil 21 noyabr Toshkent.

2.7-jadval

Xalq banki hisobvarag`iga majburiy ba`dal qo`yish stavkalari

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Majburiy (foiz stavkasi)	10	10	10	10	9	8	8	8	7


Agar bu ba`dallar ixtiyoriy ravishda qo`yilsa, bu ixtiyoriy ba`dallarga balandroq foiz stavkalarda amalga oshiriladi.

2.8-jadval

Xalq banki hisobvarag`iga ixtiyoriy ba`dal qo`yish stavkalari

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Ixtiyoriy (foiz stavkasi)	10	10	10	10	9	8	24	24	24


2015 yilda ushbu miqdor besh barobar ortgan. 2010-2011 yillarda tizim ishtirokchilarining majburiy badallari uchun 7 foiz miqdorida, ishtirokchilarning ixtiyoriy kiritgan badallari uchun 18 foiz miqdorida foizlar hisoblanib, olingan daromadlar fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari qoldig'iga qo'shib borilmoqda (2.6-rasm).



2.6-rasm. Jamg'ariladigan pensiya tizimidagi mablag'larga foizlar to'lash foiz hisobida³⁹

³⁹ Ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki⁴⁰ning ma'lumotlariga ko'ra, jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi mablag'lar qoldig'i o'sish sur'atlariga ega. Jumladan, ushbu ko'rsatkich 2005 yilda 18,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilga kelib, 1526,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan, ya'ni 2015 yilda 2005 yilga nisbatan 80,7 martaga ortgan (2.7-rasm).



2.7-rasm. Jamg'ariladigan pensiya tizimida mablag'lar qoldig'i, mlrd. so'mda⁴¹

Respublika bo'yicha jamg'arib boriladigan pensiya tizimida yig'ilgan mablag'larning bir ishtirokchiga to'g'ri keladigan o'rtacha miqdori 2010 yilda 59,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda esa ushbu ko'rsatkich 191,7 ming so'mni tashkil etadi.

2.3. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir ishchi-xizmatchi mehnat qobiliyatini yo'qotgan, boquvchisidan ayrilgan taqdirda va qonun bilan belgilangan boshqa holatlarda yoshga qarab belgilanadigan ijtimoiy

⁴⁰ Xalq banki aksiyadorlarining 2015 yil 29 iyundagi yillik umumiy yig'ilishida Bank nomini "O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki"dan "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki"ga o'zgartirish to'g'risida qarori qabul qilindi. Bank Ustaviga tegishli o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida 2015 yil 20 iyulda 25-son bilan ro'yxatga olindi.

⁴¹ DAT "Xalq bank" hisobotlari asosida muallif tayyorlandi.

ta'minot huquqiga ega. Mazkur huquqni realizatsiya qilish tartibi quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni (03.09.1993 y.);

- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (18.11.1991 y.);

- O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni (16.04.2009 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli etkazilgan zararni to'lash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (11.02.2005 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (08.09.2011 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo'qotilishi darajasini aniqlashga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (01.07.2011 y.);

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq pensiyalarni to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (23.12.2014 y.) va h.k.

Yuqorida qayd etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan har bir muayyan holatga tegishli qismi bo'yicha pensiya yoshiga etgan shaxslarga, nafaqat, pensiya va nafaqalar tayinlanishi va to'lanishi, balki ular tomonidan mehnat qobiliyati yo'qotilganligi bilan bog'liq boshqa to'lovlar ham tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, sug'urta badallarini to'laydigan shaxslar pensiya ta'minoti huquqiga ega

bo'ladilar. Bunda, har bir toifa (yollanma ishlaydiganlar, yakka tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari va h.k.) uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi belgilangan.

Ayni paytda, sug'urta badallarini to'lamaydigan shaxslar (mehnat stajiga ega bo'lmagan yoki ish staji etarlicha bo'lmagan shaxslar) ham yuqorida qayd etilgan qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'ladilar. Jismoniy shaxs bir necha turdagi pensiya huquqiga ega bo'lgan taqdirda, u pensiya turini tanlash huquqiga ega. Har bir turdagi pensiyani (nafaqani) hisoblab chiqarish tartibi yuqorida qayd etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, O'zbekistonda yoshga qarab belgilanadigan pensiya sug'urtalangan xodimlarga umumiy asoslarda tayinlanadi: erkaklarga – oltmish yoshga to'lgandan so'ng, umumiy mehnat staji eng kamida yigirma besh yil, ayollarga – ellik besh yoshga to'lgandan so'ng, umumiy mehnat staji eng kamida yigirma yilni tashkil qilishi kerak.

Sug'urtalangan xodimlarning alohida toifalariga pensiya kamaytirilgan pensiya yoshida, taalluqli holatlarda esa kamaytirilgan mehnat stajida ham belgilanadi. Mazkur shaxslar ro'yxati qonunlar bilan belgilanadi, jumladan, ushbu toifaga zararli ishlab chiqarishlarda ishlaydigan shaxslar kiritiladi.

Nogironlik bo'yicha pensiya qonunlar bilan belgilangan tartibda quyidagilar oqibatida I va II guruh nogironlari deb e'tirof qilingan sug'urtalangan xodimlarga tayinlanadi:

- mehnat faoliyati davomiyligiga qarab, ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi;

- boshqa sabablar – tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan holatlarda, uning davomiyligi sug'urtalangan xodimning nogironlik yuz bergan vaqtdagi yoshiga bog'liq bo'ladi.

Boquvchisidan ayrilgan holat bo'yicha pensiya mehnat faoliyati davomiyligidan qat'iy nazar, ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida

boquvchisi vafot etgan oilaning ishga yaroqsiz (mehnat qobiliyatini yo'qotgan) a'zolariga belgilanadi, boshqa sabablar oqibatida boquvchisi vafot etgan taqdirda esa tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan holatlarda, uning davomiyligi sug'urtalangan xodimning boquvchisi vafot etgan kundagi yoshiga bog'liq bo'ladi.

Ishda shikastlangan yoki kasb kasalligiga ega bo'lgan shaxslar misolida nogironlik tayinlanishi va taalluqli ravishda, pensiya ta'minoti tartibini ko'rib chiqamiz. Yuqorida qayd etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan me'yorlar ishda shikastlangan va kasb kasalligiga ega bo'lgan xodimlarning o'z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida nogironlik uchun, shuningdek tibbiy, kasbiy-mehnat va ijtimoiy reabilitatsiya huquqini ta'minlaydi. Ishda shikastlangan yoki kasb kasalligiga ega bo'lgan shaxslarning kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini, shuningdek, muhim faoliyat cheklanishi va nogironlik guruhi darajalarini belgilash tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Ular ustidan davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi tufayli sog'liq shikastlanishlari oqibatlaridan kelib chiqib, zararlangan shaxsning ishda shikastlanish va/yoki kasb kasalligidan oldingi xuddi shunday mazmunda va xuddi shunday hajmda kasb faoliyatini bajarish imkoniyatlari hisobga olingan yoxud oddiy, maxsus tashkil qilingan ishlab chiqarish va boshqa sharoitlarda malaka pasayishi, bajariladigan ish hajmi va mehnat og'irligi kamayishi hisobga olingan holda belgilanadi hamda kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilashning klinik-funksional mezonlariga muvofiq, 5 foizdan 100 foizgacha doirada tayinlanadi. Bugungi kunda respublikada 16 yoshdan katta yoshdagi nogironlarning umumiy soni 572,2 ming kishini tashkil qiladi, ulardan ishda shikastlanish oqibatida nogiron bo'lganlar 8,5 ming kishini (1,4%), kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlar taxminan 2,2 ming kishini (0,4%)ni tashkil qiladi.

Ulardan ishda shikastlanish oqibatida 1-guruh nogironlari – 5,3%, 2-guruh nogironlari – 42,8%, 3-guruh nogironlari – 51,9%ni tashkil qiladi.

2014 yilda mehnatda mayiblanish oqibatida 94 kishiga nogironlik birinchi marta belgilangan bo'lib, ulardan 1-guruh nogironlari – 17%, 2-guruh nogironlari – 51,1%, 3-guruh nogironlari – 31,9%ni tashkil qilgan. Kasallanish turlari bo'yicha jarohatlar, shuningdek tana a'zolarining amputatsiya qilinishi birinchi o'rinda qolmoqda, keyingi o'rinlarni esa tayanch-harakat tizimi kasalliklari, ko'z va asab tizimi kasalliklari egallaydi. Kasb kasalliklari sababli nogironlar orasida 1-guruh nogironlari – 2,0%, 2-guruh nogironlari – 48,5%, 3-guruh nogironlari – 49,5%ni tashkil qiladi.

Nafas olish tizimi kasalliklari birinchi o'rinni egallaydi – 37,2%, so'ngra esa quloq og'irligi (karlik) va boshqa “LOR” organlari kasalliklari – 10,5%ni tashkil qiladi. 2014 yilda kasb kasalliklari sababli 1-guruh nogironlari 56 kishidan iborat bo'lib, ulardan 2-guruh nogironlari – 12,5%, 3-guruh nogironlari – 87,5%ni tashkil qilgan. Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan tibbiy-ijtimoiy ekspertiza asosida organizmning buzilgan yoki yo'qotilgan funktsiyalarini, shuningdek, nogironning muayyan mehnat faoliyati turlarini bajarish imkoniyatlarini tiklashga, o'rnini to'ldirishga qaratilgan tibbiy, kasbiy va boshqa rehabilitatsiya qilish chora-tadbirlari majmuini o'z ichiga olgan Nogironlarni rehabilitatsiya qilish alohida (individual) dasturi ishlab chiqilmoqda. Nogironlarni rehabilitatsiya qilish alohida (individual) dasturiga muvofiq, tashkilotlarda band nogironlarga zarur mehnat shart-sharoitlari yaratilmoqda.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari va tibbiy-konsultativ komissiyalari xulosalari asosida qonunlarga muvofiq joylarda davlat hokimiyati organlari, mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi organlari, boshqa davlat organlari tomonidan nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatilmoqda.

Bugungi kunda mehnat va pensiya qonunchiligiga kiritilgan zamonaviy talablar va o'zgarishlarga muvofiq, ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida shaxslarning nogironlik va kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilashda hamda nogironlarni rehabilitatsiya qilish alohida (individual)

dasturi ishlab chiqilishida tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- turli ish beruvchilarda ishchi-xizmatchilarga ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilash tartibi;

- “ishda shikastlanish” va “kasb kasalligi” sabab bog'liqligini, shuningdek, tibbiy-mehnat ekspert komissiyalariga dastlabki murojaat qilinganda, pensiya yoshiga etgan shaxslarga kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilash tartibi;

- bosh sanitar shifokor tomonidan 2004 yil 22 iyulda tasdiqlangan nogironlarni oqilona kasbiy ishga joylashtirish to'g'risida MU012-3/0032-sonli Metodik ko'rsatmalari zamonaviy talablariga muvofiq qayta ko'rikdan o'tkazish.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining 2014-2015 yil holati dissertatsiyaning 3-ilovasida keltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida shaxslarning nogironligi va kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilashda yuzaga keladigan muammolar tufayli respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi tomonidan mazkur shaxslarni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar kiritiladi:

1. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Mehnat vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi o'rtasida kelgusida ishda shikastlanish va kasb kasalliklari holatlarini qisqartirishga, shuningdek ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishga qaratilgan o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash;

2. Ish beruvchi tomonidan tegishli to'lovlar uchun jismoniy shaxs huquqlarini ta'minlash maqsadida ishda shikastlangan va kasb kasalliklariga ega shaxslarni ko'rikdan o'tkazishda kasaba uyushmalari vakillarining tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari yig'ilishlarida ishtirok qilishlari;

3. Tez-tez takrorlanib turadigan ishda shikastlanish va kasb kasalliklari holatlari boshqa korxonalar va tashkilotlarda yuz berishining oldini olish maqsadida bunday holatlarning muntazam tahlilini o'tkazish;

4. Kasb kasalliklari holatlari mavjud bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini (29.08.2012 y. 2387-sonli) takomillashtirish.

Davlatimiz rahbarining 2013 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Farmoniga asosan, 2014 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolik-huquqiy tushadigan shartnoma asosida ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar agar ularning daromadlari (gonorar, mukofot va boshqalar) qonunchilikda belgilangan yoshga doir pensiya eng kam miqdoridan past bo'lgan taqdirda to'liq miqdorda to'lanadi. Deylik, yoshga doir pensiyani oluvchi ishlaydigan pensioner biror ishni (xizmatni) bajarishga 10 fevraldan 1 martga qadar bo'lgan davr uchun 150 ming so'mga kelishib, ish beruvchi bilan fuqarolik-huquqiy tushadigan shartnoma tuzdi. U shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni belgilangan muddatda tugatib bo'ldi. Fuqaroning daromadi qonunchilikda belgilangan yoshga doir pensiya eng kam miqdoridan oshmaganligi sababli pensiya to'liq miqdorda to'lanadi. Agar pensioner uch oylik muddatga va 450 ming so'mga shartnoma asosida ishlasa, shartnoma amal qilish davrida ham u pensiyasini to'liq hajmda oladi. Sababi uning o'rtacha oylik daromadi har oyga 150 ming so'mga to'g'ri kelib, bu mablag' ham yoshga doir pensiya eng kam miqdoridan oz. Bordini, o'rtacha oylik daromadi yoshga doir pensiya eng kam miqdoridan oshsa (masalan, 200 ming so'm), pensionerga tegishli davr uchun pensiya ellik foizi to'lanadi. Tashkilot rahbarlari pensioner bilan fuqarolik-huquqiy shartnomasi tuzilganligi to'g'risida pensionerning yashash joyidagi Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga hamda pensiya tayinlangan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklariga, Milliy xavfsizlik xizmati va Davlat bojxona qo'mitasiga besh kunlik muddatda xabar berishi va fuqarolik-huquqiy shartnomasining nusxasini taqdim etishi shart. Shuningdek, pensionerlar (oilaning

boshqa a'zolari uchun boquvchisini yo'qotganlik pensiyani oluvchidan tashqari) ham fuqarolik-huquqiy shartnomasi tuzilganda tegishli pensiya tayinlangan idoraga (o'zining yashash joyidan) xabar berishi talab etiladi.

Qonunchilikda belgilangan quyidagi toifadagi ishlovchi pensionerlar esa ilgorigidek pensiyasini to'liq hajmda olish huquqiga ega: urush nogironlari va qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar; ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy xizmatni o'tagan yoki front ortida ishlagan shaxslar; 1 va 2- guruh nogironlari; Chernobil AES halokatidan ziyon ko'rgan shaxslar; fuqarolar yig'inlari va mahallalarning raislari; fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayol pensionerlar (yoshga doir pensiyani olganda).

II bob bo'yicha xulosalar

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1951 yili Malaziya davlatida paydo bo'lgan. Bu davrda Malaziyada barcha ishchi qatlamlarin qamrab oluvshi jamg'arma kassasi joriy qilingan⁴². 1980 yilga kelib, Chili davlatida majburiy jamg'arib boriladigan pensiya dasturi joriy etildi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- har kim o'zi uchun pensiyani jamg'arish tufayli demografik omillar ta'sir etmaydi;
- to'liq davlat tomonidan (Singapurda), to'liq xususiy sektor tomonidan (Chili), shuningdek «aralash» amalga oshirilishi mumkin;
- ushbu model mablag'lari iqtisodiyot uchun uzoq muddatli investitsion hisoblanadi;
- davlat budjeti barqarorligiga ta'sir ko'rsatmaydi;
- Yuqori ajratma qilgan fuqarolar yuqori pensiya olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

⁴² Mamadjanov I. "Pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasidagi "Jahon mamlakatlari pensiya tizimining rivojlanish yo'nalishlari" maqolasi. 2014 yil 21 noyabr Toshkent.

Jamg`arib boriladigan pensiya tizimida quyidagi kamchiliklar ko`zga tashlanadi:

- umumiyqisodiy inqiroz sharoitida tizimda kata yo`qotishlar bo`lishi mumkin;
- aholi tizimning moliyaviy ahvolidan doimiy xabardor bo`lmasligi.


Pensionerlarning farovonligini qo`shimcha ravishda oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida «Fuqarolarning jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti to`g`risida»gi qonuni qabul qilindi va 2004 yil 21 dekabrda Vazirlar Mahkamasining 595-sonli qaroriga asosan 2005 yil 1 yanvardan boshlab amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti tizimiga qo`shimcha ravishda jamg`arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi va fuqarolarning shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig`i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning bir foizi miqdorida amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2005 yil 6 oktabrdagi “Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg`arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga majburiy badallarni qo`shish va to`lash tartibi to`g`risida”gi 1515-sonli Nizomga asosan: fuqarolarning SHJBPHga majburiy badallari budjetga to`lanadigan soliqlar va majburiy to`lovlarga tenglashtirilishi; bugungi kunda jamg`arib boriladigan pensiya badali hisobvaraqlari ochgan fuqarolar soni 8205 ming nafarni tashkil qiladi. Yuqoridagi Nizomning 19-bandiga asosan ish beruvchi tomonidan SHJBPO`ga majburiy jamg`arib boriladigan pensiya badallarining to`g`ri va to`liq hisoblanishi hamda o`z vaqtida kiritilishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari amalga oshirishi belgilangan.

III BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TA`MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI


3.1. Pensiya ta`minoti tizimidagi muammolar va ularni hal etish yo`llari

Pensiya tizimi islohati pensiya ta`minotidagi ikki asosiy printsipka tayanadi: avlodlar birdamligi prinsipi va jamg`arish prinsipi. Ushbu ikki pensiya tizimining farqi pensiya to`lovlari moliyalashtiruvdagi yondoshuv hisoblanadi. Agar jamg`arish tizimi (3.1-rasm)da pensiya faqat sug`urta ba`dallari hisobiga to`lansa, avlodlar birdamligi prinsipi (3.2-rasm)da joriy davrdagi ishchilarning badallari hisoblanadi.



3.1-rasm. Jamg`arish pensiya tizimi⁴³

Sug`urta badallarini to`layotgan ishchi ushbu sug`urta badali miqyosidan kelib chiqqan holda kelajakda pensiya oladi.



3.2-rasm. Avlodlar birdamligi prinsipiga asoslangan pensiya tizimi⁴⁴

⁴³ Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: “Фан”, 2005. – С. 130.

Rivojlangan va ayrim o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari (Vengriya, Polsha, Chexiya) tajriyasidan kelib chiqqam holda shuni aytish mumkinki, aholi daromadlari differentsiyasi va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uch darajali pensiya pensiya tizimini joriy etish eng optimal echim hisoblanadi.

Uch darajali pensiya tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

– birinchi daraja – pensiya tizimidagi vazifalarga ko'ra ijtimoiy ahamiyatga ega. Ushbu daraja mehnatga qobiliyatsiz aholi qatlamini yashashini ta'minlovchi pensiya hajmini kafolatlaydi. Bu daraja davlat tomonidan ish staji, sug'urta staji va pensionerning sug'urta hisobidagi jamg'arma hajmidan qa'tiy nazar minimal pensiya belgilaydi. Bu daraja ijtimoiy harakterga ega;

– ikkinchi daraja – pensionerning sug'urta ajratmalari va mehnat faoliyati bilan bog'liq. Ushbu darajaning asosiy maqsadi pensionerni oldingi, mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan davrdagi moliyaviy sharoitini saqlab qolish. Bu daraja faol ishlovchi fuqaro uchun mo'ljallangan bo'lib, uni yo'qori to'lanadigan ish joyida ishlashga, pensiya yoshida foydalanish uchun daromadlarining bir qismini jamg'arishga rag'batlantiradi. Funktsiyasi va vazifalariga ko'ra ushbu daraja uchta bosqichlar ishida eng asosiysi bo'lib, u pensionerga yuqori hayot darajasini ta'minlashga qaratilgan;

– uchinchi daraja – ishchining hohish va imkoniyatidan kelib chiqqan holda, pensiya yoshiga etgach pensiya hajmini oshirishga qaratilgan bo'lib, u individual va qo'shimcha funktsiyaga ega. Pensiya tizimining ushbu bosqichi davlat va nodavlat sug'urta kompaniyalari, banklar, pensiya va boshqa fondlarning ishtiroki asosida tashkillashtiriladi.

Agar davlat birinchi ikki bosqichlarda: ularning tashkil qilish shartlari, pensiya ta'minoti hajmini belgilashda ishtirok etsa, uchinchi bosqichda davlat to'g'ridan – to'g'ri ishtirok etmaydi, biroq shartnoma va huquqiy majburiyatlar bajarilishida kuzatuvchi vazifasini o'taydi.

Pensiya iste'mol qobiliyatini ta'minlashning yana bir yo'li – pensiya indeksatsiyasi hisoblanadi. O'zbekistonda aralash holatda indeksatsiyaning ikki

⁴⁴ Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: "Фан", 2005. – С. 130.

ko`rinishi qo`llaniladi: davlat imkoniyati va iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holdasistematik va bir marotabalik indeksatsiya. Sistematik indeksatsiya mamlakatdagi narxlarning yoki o`rtacha oylik ish haqining oshirilishi bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, amalga oshiriladigan indeksatsiya davlatni iqtisodiyotdagi inflatsiya ustidan rasmiy nazorat olib borayotganligini bildiradi, lekin qonun jihatdan ushbu jarayon muhlati va amalga oshirilish holatlari belgilanmagan. Pensiya iste`mol qobiliyati sezilarli holatda tushib ketsa, bir marotabalik pensiya va ishchilar oyligi indeksatsiyasi amalga oshiriladi. Bu O`zbekistonning pensiya to`lovlarini stabil holatda ushlab turishdagi o`ziga hosligi hisoblanadi. Pensiya indeksatsiyasi uchun moliyaviy manbalar o`rtacha oylik ish haqini oshirish bilan avtomatik ravishda Pensiya fondiga sug`urta badallarini ko`paytirish yoki mahsus badallar (masalan, mahsulot realizatsiyasi 1.6 foiz), mahsus hukumat subsidiyalari, jamg`arish pensiya fondidagi bo`sh pul mablag`larini investitsiya qilishdan olinadigan kelajakdagi daromadlarni kiritish orqali aniqlanadi.

Asosiy muammo “zamonga moslangan” deb nom olgan 15-20 yil oldin, rejali iqtisodiyot davrida ishchilar olgan, rejali iqtisodiyot davrida ishchilar olgan oylik ish haqlari hisoblanadi. Davlat qonuniy yo`l orqali “zamonga moslangan” ning shartlarini ikki yo`l orqali aniqlaydi: oldingi ish haqlarini mamlakatlardagi o`rtacha oylik ish haqi holatiga ko`ra hozirgi miqdorga olib keladi va hayot darajasini indeksatsiya qilish orqali. Nisbatan yuqori inflyatsiya sharoitida hayot darajasi indeksatsiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Indeksatsiyaning qiyin va har doim ham to`g`ri bo`lmagan shaklini islohatlarning birinchi bosqichida qo`llash mumkin. Uni belgilangan maqsadga muvofiq quyidagicha amalga oshirish mumkin:

Birinchi usul – chiziqli indeksatsiya: pensiyaning barcha hajmi va ustama hamda oshirilgan qismlari hamma pensionerlar uchun bir hil bo`lgan oshirilgan pensiya koeffitsientiga ko`paytiriladi. Indeksatsiyaning ushbu usulini qo`llash oqibatida pensiyalar o`rtasidagi mavjud differensiatsiya saqlanib qolinadi, biroq

narxlar o`lishi kompensatsiyasi har hil bo`ladi: pensionerda pensiya qanchalik ko`p bo`lsa, u shuncha ko`p kompensatsiyaga ega bo`ladi.

Ikkinchi usul – differensiyallashgan indeksatsiya, bunda pensiyaning oshgan koeffitsienti uning hajmiga bog`liq bo`ladi. Ushbu usulda ustama va qo`shimchalarni hisobga olgan holda pensiyaning oshganlik koeffitsienti shartli ravishda uch qismga bo`linadi. Pensiyaning birinchi qismi qarilik bo`yicha pensiyani minimal hajmining bir yarim barobariga teng bo`lib, u to`liq indeksatsiya hajmida ko`paytiriladi.

Pensiyaning ikkinchi qismi qarilik bo`yicha pensiyani minimal hajmining bir yarim barobariga teng bo`lib, u 1 indeksatsiyaning 50 foiz hajmida ko`paytiriladi. Pensiyaning uchinchi qismi o`zgartirilmaydi.

Natijada uch bosqichli pensiya tizimini taminlab beruvchi indeksatsiya tizimi shakllantirilib, u quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- bazaviy pensiya. Uning minimal darajasi davlat tomonidan o`rnatiladi va u minimal pensiyadan kam bo`lmaydi;

- sug`urta pensiyalari. U majburiy davlat pensiya sug`urtasini sug`urta staji davomiyligi va sug`urta jamg`arishlari hajmini hisobga olgan holda to`lovchilar tomonidan belgilaniladi;

- qo`shimcha (davlat va nodavlat) jamg`arish pensiyalari. U pensiya fondlaridagi o`z hisoblariga qo`shimcha ajratmalarni jamg`arish sug`urtasi to`g`risidagi shartnomalarda belgilanganligiga ko`ra ajratuvchi va o`z jamg`arishlari investitsiyasidan daromadni oluvchi shaxslar tomonidan belgilanadi.

3.2. Pensiya ta`minoti tizimining taraqqiyot istiqbollari

Pensiya ta`minoti tizimini isloh qilish sohasidagi asosiy vazifa pensiya jamg`armasiga to`lanadigan badallar va pensiya to`lovlari miqdori o`rtasidagi uzviy bog`liqlikni o`rnatishdir. Bu ishchilarning badallar to`lashdan manfaatdorligini oshirish, budjetga og`irlikni kamaytirish maqsadida davlat tizimi miqdorini qisqartirish, ishchilar va ishberuvchilar to`laydigan badal stavkasini

pasaytirish va kelajakda jamg`arish tizimini amalga oshirishga zamin tayyorlash uchun zarurdir.

Bunday holatga birdamlik taqsimlash darajasini shartli-jamg`arish chizmasiga aylantirish yoki ish haqiga bog`langan, belgilangan to`lovli chizmani o`zgartirish va qisqartirish orqali erishiladi.

Mamlakatlarning ko`p darajali pensiya tizimiga o`tishiga muvofiq, xususiylar pensiya jamg`armalarini boshqarishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, hisob-kitoblarni olib borish, badallarni yig`ish, hususan, pensiya jamg`armalari faoliyati ustidan nazorat yuritish va tartibga solish bo`yicha institutsional salohiyatni shakllantirish kabi muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pensiya taminoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimizning 2009 yil 30 dekabrda qabul qilgan "O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg`armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi 1252-sonli Qarori qabul qilindi. Qaror nizomiga muvofiq, pensiya jamg`armasining daromadlari va xarajatlari belgilandi.

Tadqiqotlar ko`rsatishicha, pensiya tizimi samarali amal qilishi uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar o`rtasida ma`lum darajada muvozanat bo`lishi lozim. Biroq, demografik prognozlar respublikada aholining keksayish jarayoni nisbatan tezlashishini va bu muvozanat o`zgarishini, ya`ni keksalarning iqtisodiy faol aholiga to`g`ri keladigan demografik yuki ortib borishini ko`rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy faol aholidan foydalanishning samaradorlik ko`rsatkichlari bozor nuqtai-nazaridan kamayishini, ya`ni ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to`lash uchun ham etmasligini ko`rsatadi. Bu esa, o`z navbatida hozirdan pensiya jamg`armasining moliyaviy holatini yaxshilashni talab etadi.

O`zbekistonda pensiya jamg`armasi moliyaviy holatini yaxshilashning qator imkoniyatlari mavjud. Ulardan biri pensiya jamg`armasi mablag`laridan maqsadli foydalanishdir. Respublika pensiya jamg`armasi mablag`larining 87,5 foizini haqiqiy pensiya to`lovlari, qolgan 23,5 foizini moliyalash bilan qoplanmaydigan

qo'shimcha xarajatlar (pensiya ustamalar, ijtimoiy nafaqalar, harbiy xizmatchilarga pensiya to'lovlari) tashkil etgan⁴⁵. Moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha xarajatlar davlat budjetining boshqa manbalaridan moliyalashtirilsa, birinchidan, pensiya jamg'armasi mablag'larining maqsadlilikiga oshadi, ikkinchidan, pensiya jamg'armasining moliyaviy ahvoli yaxshilanadi.

Respublikada pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilash yo'llaridan biri imtiyozli pensiya tayinlanishini kamaytirish. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda respublikamizda yoshga doir pensiya oluvchilarning ortasida imtiyozli asosda pensiyaga chiquvchilarning hissasi ortib bormoqda.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2012 yilda jami yoshga doir pensiya oluvchilar soni 2005 yilga nisbatan 4,4 foizga ko'paygan holda, imtiyozli asosda pensiya oluvchilar soni 29,5 foizga ko'paygan⁴⁶. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy- iqtisodiy va demografik rivojlanishida kuzatilayotgan quyidagixususiyatlar imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay vozkechishga imkon beradi. Jumladan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og'ir hisoblanmaydi. Agar 2005 yilda sanoat, transport vaqishloq xo'jaligi korxonalarida har 1000 kishining kasb kasalligi bilan hastalanish ko'rsatkichi 0,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 0,45 foizni tashkil etdi⁴⁷.

Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar respublikada imtiyozli pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Bu esa, pensiyaga chiqish o'rtacha yoshini pensiya tizimi islohotidagi ilk bosqichlarda erkaklar uchun 1,5 yilga, ayollar uchun 2 yilga ko'tarish imkonini beradi. Evropa Ittifoqining (EI) ko'pgina mamlakatlarida pensiya yoshi qilib erkaklarga ham, ayollarga ham 65 yosh belgilangan. Pensiyaga chiqish uchun eng katta yosh Daniyada - erkaklar va ayollar uchun 67 yosh. MDHga kiruvchi aksariyat mamlakatlar pensiyaga chiqish yoshini qonun yo'li

⁴⁵ "Birja ekspert" jurnali. №1-2, 2013. 24-b.

⁴⁶ "Birja ekspert" jurnali. №1-2, 2013. 25-b.

⁴⁷ "Birja ekspert" jurnali. №1-2, 2013. 25-b.

bilan ko'tardi. Jumladan, Ozarbayjon, Moldova va Turkmanistonda pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun – 62 yoshga, ayollar uchun –60 yoshga, Armanistonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 60 yoshga, Qozog'istonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 58 yoshga ko'tarilgan. O'zbekistonda islohotning keyingi bosqichlarida ayollar va erkaklar pensiya yoshini bir hil qilish lozim – ayollarning umr uzunligi ko'proq va tabiiyki, erkaklar milliy daromad yaratilishida ayollarga nisbatan faol harakat olib boradi. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida bevosita ayollarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar sodir bo'lmoqda. Jumladan:

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ayollar salmog'i ortib bormoqda. Agar 1995 yilda iqtisodiy faol ayollar salmog'i 3608,0 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 5554,1 ming kishiga etgan yoki bugungi kunda ish bilan band aholining 45,4 foizini ayollar tashkil qilmoqda;

Ayollarga erkaklarga nisbatan tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining yuqoriligi saqlanmoqda. 1990 yilda respublikada ayollarning o'rtacha umr davomiyligi 72,4 yoshdan 2012 yilda 75,1 yoshga, erkaklarda esa 66,1 yoshdan 69,6 yoshgacha oshgan. Ko'rinib turibdiki, ayollarning o'rtacha hayot davomiyligi erkaklarga nisbatan 3-5 yilni tashkil etadi⁴⁸.

Pensiya ta'minotini takomillashtirish bo'yicha konsepsiyani ishlab chiqish va kelajakdagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish zarur. Bunda mamlakatning demografik o'zgarishlari, aholi daromadlarining o'sishi, pensiya jarayonida ishtirok etuvchilarning huquqiy ongini oshirish kabi vazifalarni o'z ichiga qamrab olishi lozim bo'ladi. Pensiyaga chiqish yoshini oshirish va vaqtli pensiyaga chiqish shartlarini keskinlashtirish yoki kechroq chiqish holatini qo'llab-quvvatlash, badal va to'lovlar holatlarini ko'rib chiqish va h.k.

Ish o'rinlarini ko'paytirish bilan birga aholini ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga jalb qilish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011 – 2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

⁴⁸ "Birja ekspert" jurnali. №1-2, 2013. 26-b.

Bazel qo`mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq, tijorat banklarini yanada kapitallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, resurs bazasini ko`paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillashtirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish hamda omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi xamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash yo`li bilan aholi hamda xo`jalik sub`ektlarining bo`sh pul mablag`larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo`yicha tizimli chora tadbirlarni amalga oshirish belgilandi. Yuqorida aytilgan Prezident qarorini ijro etish maqsadida Xalq bankining boshqaruv qarori bilan ixtiyoriy jamg`arib boriladigan pensiya badallariga yillik 24 foiz daromad berilishi belgilandi.

Jamg`arib boriladigan pensiya mablag`larini kafolatlangan investitsiyalarga jalb etish. Bunda Xalq banki tomonidan boshqa tijorat banklariga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan past bo`lmagan shartlarda investitsiya qilish. O`z oldiga sug`urta staji davomiyligiga va muayyan ishchining butun ish faoliyati davomida jamg`arish holatiga tayanganib, pensiya hajmini hisoblab chiqishni o`z oldiga maqsad qilgan pensiya hajmini hisoblashning yangi mexanizmini ishlab chiqish.

III bob bo`yicha xulosa

Pensiya Fondi boshqarish tizimining rivojlanishi: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 4 avgustdagi Qarori bilan Ijtimoiy sug`urta fondi tashkil etildi. Bunga qadar faoliyat yuritib kelgan ittifoq pensiya fondining o`zbek bo`linmasining barcha vakolatlari va mablag`lari respublika ijtimoiy sug`urta Fondiga berildi. 1996 yil 27 dekabr kuni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot vazirligi qoshida Pensiya Fondini tashkil etish to`g`risida”gi 459-sonli Qarori qabul qilindi. Pensiya ta`minoti uchun majburiy to`lovlarning kelib tushishi va pensiya hamda to`lovlarning o`z vaqtida ishlatilishi O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot

vazirligiga yuklatildi, Ijtimoiy ta'minot vaziri bir vaqtning o'zida Pensiya fondining Raisi vazifasini bajarishi belgilandi.

2000 yilda sohaviy tizimlarining boshqaruvning yuqori bo'g'inlarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'p vazirlik va idoralari tugatilib, ularning vakolatlari hududiy boshqarish idoralariga umumiy va tashkiliy- yo'riqnomaviy yordam ko'rsatuvchi agentlik va assotsiatsiyalarga berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21-oktyabr kunidagi «Budjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya fondi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya fondiga o'tkazildi 2010 yildan boshlab, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish maqsadida aholi o'rtasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mexanizmi va afzalliklari to'g'risidagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini doimiy asosda amalga oshirib borish zarur. Bunda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larni byudjetga ajratmalarni kamaytirish hisobiga shakllantirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarning manfaatlarini kamsitmaydigan tartibiga alohida e'tibor berish kerak. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining printsipial xususiyatlari hamda uni joriy etishning ijobiy tajribasini yoritishda ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya ishini yozish jarayonida milliy va jahon pensiya tizimiga oid bo'lgan jarayonlarni, muammo va dolzarb masalalarni tadqiq etib, tizimga oid ma'lumot va ko'rsatkichlarni tahlil ini amalga oshirish orqali quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1. Pensiya – qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarni keksaligida, qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizligi, boquvchisini yo'qotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida ma'lum ish stajiga erishgan paytida ta'minlashga qaratilgan pullik to'lovidir. Qayd etish joizki, pensiya qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovidir.

2. Jahon amaliyotida pensiya tizimlarining hamjihat mas'uliyat tizimi (hozirda ishlayotgan avlod oldingi avlodning pensiyalarini mablag' bilan ta'minlash uchun badallar to'laydi) va jamg'arma tizimi (har bir ishlovchi xodim mehnat faoliyati davomida o'zining qarilik davrini ta'minlash uchun maxsus pensiya jamg'armalarida mablag' yig'ib boradi) mavjud. Shuningdek, xususiy pensiya tizimiga asoslangan korporativ pensiya ta'minoti amal qiladi.

3. Dunyo mamlakatlari pensiya ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan muammolar XX asrning 80 yillarida ayniqsa keskinlashdi va shu davrdan boshlab pensiya tizimi islohotlari boshlandi. Islohot o'tkazilishining sababi ishlayotgan va ishlamayotgan aholi qatlamlari o'rtasidagi balansning buzilishi oqibatida qayta taqsimlash tizimining inqirozi bo'ldi. Ushbu nomunofiqlik davlat xarajatlari hisobiga qoplangan bordi va bu pensiya ta'minoti tizimining yangi iqtisodiy-ijtimoiy va moliyaviy yangilansih va o'zgarishlarga, demogrrafik, iqtisodiy va boshqa o'zgarishlarga mos holda rivojlanish yo'liga o'tishi lozimligini muqarrar qilib qo'ydi;

4. Hozirgi vaqtda butun jahon miqyosida yuz berayotgan demografik inqiroz sharoitda pensiya tizimi oldidagi asosiy vazifalar quyidagilardir: 1) aholini pensiyaga chiqqach kafolatlangan daromad bilan ta'minlash; 2) pensiya yoshidagi

aholi qatlamini tobora ortib borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va ruhiy tushkunliklardan himoyalash.

5. Pensiya ta'minotining jahon tajribasining tahlili shuni ko'rsatdiki, amaliyotda pensiya tizimi va ularning turli kombinatsiyalari mavjud. Bunda, tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, pensiya tizimimamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik holati va darajasiga, an'analar, ijtimoiy ta'minotdagi mavjud tajriba va pensiya ta'minotining institutsional rivojlanishiga javob bera olishi kerak.

6. Dissertatsiya tadqiqotining natijalari pensiya tizimi turi quyidagilarga bog'liqligini ko'rsatadi: YAIM darajasi, davlat budjetidaromadlari, ish haqi va inflyasiya, qimmatli qog'ozlar bozori va kredittizimining rivojlanganlik darajasi va b., shuningdek, demografik faktorlar: tug'ilish va o'lim darajasi, umr ko'rish uzunligi, aholining mehnatga qobiliyali qismi bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbat (demografik og'irlik koeffitsienti) va b.

7. Tadqiqot natijalari pensiya tizimida hozirgi islohotlar ushbutizimni butkul o'zgartirish emas, balki o'zida davlat qayta taqsimlashpensiya tizimi, jamg'arish sxemasi va ixtiyoriy pensiya sug'urtasinirivojlantirish va parallel holatda olib borilayotganligini ko'rsatmoqda. Yangi tizimga o'tish mamlakatlarda bosqichma-bosqich holatda amalgaoshiriladi. Har bir mamlakatda o'tishning alohida elementlari, shuningdek uningmoliyalashtirilishi o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ko'p mamlakatlardagi pensiya islohotlari iqtisodiy o'sish va ish haqining ko'tarilishi shartlari bajarilgandan so'ng boshlanadi.

8. Dissertatsiya tadqiqotidan shu narsa ma'lumki, aholining ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan har qanday model va mexanizmlarning qo'llanilishida konkret ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik o'ziga xoslikni inobatga olinmasa, ushbu model samarasiz bo'ladi.

9. O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari differentsiatsiyasi va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uch darajali pensiya tiziminiijoriy etish eng optimal echim hisoblanadi.

10. O'zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini besh guruhga ajratish mumkin:

– birinchi bosqich (1918-1956 yillar) davrida mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va ko'p yillik xizmatlari uchun kabi pensiya turlari joriy etildi. Ayollar va erkaklarga yoshiga qarab pensiya belgilash ham o'sha davrda qaror topdi.

– Ikkinchi bosqich (1956-1990 yillar) davrida davlat pensiya ta'minoti to'g'risida ilk bor yagona qonun ("Davlat pensiyalari to'g'risida"gi) qabul qilindi (1956). Bu qonunga asosan barcha tarmoq ishchi-xizmatchilari uchun (kolxozchilardan tashqari) yagona pensiya tartibi belgilandi.

– uchinchi bosqich (1990-1994 yillar) mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari tartibiga o'ta boshlagach, pensiya ta'minotida ham islohotlar o'tkazilishi bilan boshlandi. Bu bosqichda ilk bor pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiya, daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo'ldi. 1990 yilda o'sha davrdagi pensiya ta'minotining huquqiy asosi bo'lgan "SSSRda fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

– to'rtinchi bosqich (1994-2004 yillar) – O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni (1993 yil 3 sentyabr) qabul qilinib, 1994 yildan amalda joriy etilishi bilan boshlandi. Ushbu qonunga ko'ra pensiyalar miqdori mehnat staji va o'rtacha ish haqiga yanada uzviy bog'landi.

– beshinchi bosqich (2005 yildan hozirga davrga qadar) – davlat pensiya ta'minoti bilan birga fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti amal qila boshladi. 2005 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi), jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i kabi tushunchalar qo'llanila boshlandi.

11. O'zbekiston Respublikasi hamda bir qator boshqa davlatlarning pensiya tizimini o'rgangan holda, O'zbekistondagi pensiya tizimini yanada isloh qilish uchun quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

– pensiya ta`minoti tizimini isloh qilish sohasidagi asosiy vazifa pensiya jamg`armasiga to`lanadigan badallar va pensiya to`lovlari miqdori o`rtasidagi uzviy bog`liqlikni o`rnatish kerak;

– mamlakatlarning ko`p darajali pensiya tizimiga o`tishiga muvofiq, xususiylar pensiya jamg`armalarini boshqarishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, hisob-kitoblarni olib borish, badallarni yig`ish, hususan, pensiya jamg`armalari faoliyati ustidan nazorat yuritish va tartibga solish bo`yicha institutsional salohiyatni shakllantirish lozim;

– Pensiya jamg`armasi mablag`laridan maqsadli foydalanish darkor;

– respublikada pensiya jamg`armasi moliyaviylar holatini yaxshilash yo`llaridan biri imtiyozli pensiya tayinlanishini kamaytirish shart;

– O`zbekistonda islohotning keyingi bosqichlarida ayollar va erkaklar pensiya yoshini bir hil qilish lozim;

– ish o`rinlarini ko`paytirish bilan birga aholini ixtiyoriylar jamg`arib boriladigan pensiya tizimiga jalb qilish kerak;

– jamg`arib boriladigan pensiya mablag`larini kafolatlangan investitsiyalarga jalb etish darkor.

Pensiya ta`minotini takomillashtirish bo`yicha konsepsiyani ishlab chiqish va kelajakdagi asosiy ustuvor yo`nalishlarni belgilab olish zarur.

Respublika pensiya jamg`armasi mablag`larining 87,5 foizini haqiqiy pensiya to`lovlari, qolgan 23,5 foizini moliyalash bilan qoplanmaydigan qo`shimcha xarajatlar (pensiya ustamalar, ijtimoiylar nafaqalar, harbiylar xizmatchilarga pensiya to`lovlari) tashkil etgan. Moliyalash bilan qoplanmaydigan qo`shimcha xarajatlar davlat budjetining boshqa manbalaridan moliyalashtirilsa, birinchidan, pensiya jamg`armasi mablag`larining maqsadliligi oshadi, ikkinchidan, pensiya jamg`armasining moliyaviylar ahvoli yaxshilanadi.

Imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay voz kechish. Sababi, ishlab chiqarishga zamonaviylar texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e`tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og`ir hisoblanmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent. "O`zbekiston". 2008. -40 b. (o`zgartirish va qo`shimchalar bilan).
2. O`zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksini tasdiqlash to`g`risida»gi Qonuni. 2007 yil. 25 dekabr. (o`zgartirish va qo`shimchalar bilan).
- 3.O`zbekiston Respublikasining «Budjet kodeksi». 2013 yil. 26 dekabr.
- 4.O`zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g`azna ijrosi to`g`risida»gi Qonuni. 2004 yil.26 avgust. (o`zgartirish va qo`shimchalar bilan).
5. O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr. (o`zgartirish va qo`shimchalar bilan).
6. O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida»gi Qonuniga hamda O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida O`zbekiston Respublikasining Qonuni. 2010 yil 26 noyabr. (o`zgartirish va qo`shimchalar bilan).
7. «Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga o`zgartish kiritish haqida» O`zbekiston Respublikasining Qonuni. 2012 yil 5 yanvar. (o`zgartirish va qo`shimchalar bilan).
8. Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida O`zbekiston Respublikasining Qonuni. 2010 yil 22 dekabr. (o`zgartirish va qo`shimchalar bilan).
9. O`zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti to`g`risida»gi Qonuni, 2004y.
10. O`zbekiston Respublikasining «O`zbekistonRespublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to`g`risida»gi Qonuni (yangi tahriri), 2008y.
11. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Nobudjet Pensiya fondini boshqarishning kelajakdagi takomillashuvi to`g`risida»gi Qarori, 2005y.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012yil 25 dekabrda
«O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1887-son Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda
«O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 2270-son Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda
“Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari
to'g'risida”gi Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19
fevralda “O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida budjetdan
tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-son
Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8
sentyabrda “Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada
takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huqukiy hujjat-larni tasdiqlash
to'g'risida”gi 252-son Qarori.

17. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxtu istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida
xizmat qilish – eng oliy saodatdir”. – T.: “O'zbekiston” 2015yil 12 avgust.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston
Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi
ma'ruzasi. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini
takomillashtirish — ustivor vazifa. //Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil, 8 dekabr.

19. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz
farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O'zbekiston”. 2010. -80 b.

20. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini
yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: “O'zbekiston”.
2011. - 48 b.

21. Karimov I. A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga
ko'taradigan yil bo'ladi. T.: “O'zbekiston”. 2012yil. -36 b.

22. Karimov I.A. “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, xayotimizning yanada erkin va obod bo’lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir.” \ Xalq so’zi. 2012 yil. 8 dekabr.

23. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \ Xalq so’zi. 2013 yil. 19 yanvar.

24. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. - T.: “O’zbekiston”, 2013.

25. Karimov I. A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: “O’zbekiston”., 1999. – 48 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to’plamlar

26. Social security, including social protection of public employees in respect of invalidity, retirement and survivors benefits. Geneva, ILO, 1988.

27. Новгородцев П.И. Право на достойное человеческое существование. – Спб., 1991, с.3 – 13.

28. Al-Buxoriy Ismoil. Al-Jomiy – As saxix. Xadislari. Toshkent. Ensiklopediya, 1995. T.Z. 475 b.

29. Aging Population and Public Pension Schemes. Washington D.C., 1996.

30. Рейно Е. Финансирование пенсий по старости: распределительные и накопительные системы в Европейском Союзе // Пенсия. 1996. №1.

31. А.М.Бабич. Е.Н.Егоров, Е.Н.Жилсов. Экономика социального страхования. Курс лекций. – М.: «ТЕИС», 1998. с.31.

32. К реформе социального обеспечения: принципы и прагматизм. Издание бюро МОТ в Москве, М., 1999, вып. 1, с. 8 – 11.

33. Rutkowski M. Returning Hope: pension system reforms in countries with transition economies, p.9, “Flagship course on pension reform”. Institut Vsemirnogo banka. 22 – 30 yanvarya 2001 goda, Budapesht, Vengriya.

34. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: “Фан”, 2005.

35. Majidov N.M., Fayzieva SH.R. Ijtimoiy sug`urta – davlatning ijtimoiy siyosatining muhim va ajralmas qismi. // Iqtisodiyotning dolzarb masalalari. Ilmiy ishlar to`plami. 2012, № 1, -B. 4.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. O`zbekiston “Respublikasi iqtisodiy-ijimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko`rsatkichlar hamda 2011-2015 yillarga mo`ljallangan prognozlar: Statistik to`plam. – T.: “O`zbekiston”, 2011. – 350 b.

3.2. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: «O`ME» davlat ilmiy nashriyoti. 2002.

3.3. www.gov.uz. – O`zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali;

3.4. www.press-service.uz – O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti;

3.5. www.gkas.uz – O`zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi rasmiy sayti;

3.6. www.stat.uz – O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi;

3.7. www.mfer.uz – O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti;

3.8. www.UzA.Uz – O`zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti;


3.9. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy;

3.10. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti;

3.11. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali;

3.12. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi⁴⁹



⁴⁹ Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X.Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: "Iqtisodiyot", 2013. 351-b.

Rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy himoya tizimining vujudga kelishi

Dasturlar	Germaniya	Buyuk Britaniya	Shvetsiya	Frantsiya	Italiya	AQSH
Ishlab chiqarishdagi ko'ngilsiz voqealardan sug'urtalash	1884	1906	1901	1946	1898	1930
Kasallik bo'yicha yordam	1883	1911	1910	1930	1943	-
Pensiya ta'minoti	1883	1908	1913	1910	1919	1935
Ishsizlikdan sug'urtalash	1927	1911	1934	1967	1919	1933
Oilaga ko'rsatiladigan yordam	1954	1945	1947	1932	1936	-
Tibbiy sug'urta va tekin tibbiy yordam ko'rsatish	1880	1948	1962	1945	1945	Qisman 1935 va 1960

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari⁵⁰

2014 yil	2015 yil	Izohlar
Byudjet Kodeksining 306-moddasiga muvofiq Kodeksning 172-moddasida ko'rsatilgan ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari solish ob'ekti hisoblanadi	O'zbekiston Respublikasi Qonuni-379-son Qonun 4-moddasining 34-bandi bilan Kodeks 306-moddasining birinchi qismi quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirildi: “Bunda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ekti ularning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilguniga qadar oxirgi ish joyi bo'yicha olingan, O'zbekiston Respublikasida byudjet muassasalari xodimlari uchun ish haqi oshirilishi hisobga olingan holda qayta hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi”	O'zbekistonning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek respublika Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari solish ob'ekti belgilandi. Mazkur xodimlarning sug'urta badallarini har oyda, keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmay to'lash bo'yicha majburiyat Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi (<i>O'RQ-379-son Qonun 4-moddasining 36-bandi</i>)
Kodeks 308-moddasining 5-bandiga muvofiq yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalarga yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari hisoblab yozilmaydi. Mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda DBQning xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlarga YaIT hisoblab yozilmaydi	O'zbekiston Respublikasi Qonuni - 379-son Qonun 4-moddasining 35-bandi bilan Kodeksning 308-moddasi birinchi qismining 5-bandi chiqarib tashlandi; ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etildi: “Yagona ijtimoiy to'lov quyidagilarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi: O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minotiga, pul mukofotlariga va boshqa to'lovlarga; O'zbekiston Respublikasi	2015 yil 1 apreldan yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalarga oid imtiyoz (mohiyatan, amalda qo'llanilmagan) bekor qilinadi. 2015 yilning 1 yanvaridan boshqa imtiyoz joriy qilindi – Konstitutsiyaviy sudning, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga YaIT hisoblab yozilmaydi. Mazkur shaxslarning daromadlariga sug'urta badallari belgilangan tartibda solinadi

⁵⁰ <http://gazeta.norma.uz/publish/doc>.

	Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga"	
Kodeks 311-moddasida ayrim toifadagi jismoniy shaxslar – yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklarining a'zolari va boshqalar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan	O'zbekiston Respublikasi Qonuni - 379-son Qonun 4-moddasining 36-bandi bilan Kodeksning 311-moddasi oltinchi qism bilan to'ldirildi, unga muvofiq yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi	Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari sug'urta badallarini to'lashni boshlaydigan muddat belgilandi
Prezidentning PQ-2099-son Qarorining 3-bandi bilan 2014 yilgi YaIT va fuqarolarning sug'urta badallari stavkalari quyidagicha belgilangan edi: YaIT stavkasi – 25%; sug'urta badallari stavkasi – 6,5%	2015 yilgi YaIT stavkalari tabaqalashtirildi: mikrofimlar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklari uchun – 15% (quyida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno); boshqa soliq to'lovchilar uchun – 25%. “SOS – O'zbekiston bolalar mahallari” uyushmasi hamda nogironlar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun YaITning imtiyozli stavkalari saqlab qolindi (tegishincha 7% va nogironlar MHTFdanda 4,7%). Sug'urta badallari stavkasi 7%gacha oshirildi	Prezidentning PQ-2270-son Qaroriga 25-ildavda 2015 yilgi YaIT stavkalari, Prezidentning PQ-2270-son Qarorining 3-bandida sug'urta badallari stavkalari belgilandi
Prezidentning 7.04.2014 yildagi PF-4609-son Farmonining 8-bandiga muvofiq 2014 yilning ikkinchi choragi uchun soliq solishdan boshlab, yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari (chakana savdo tashkilotlaridan tashqari) qurilishi yakunlangan ob'ektni qabul qilish hujjati tasdiqlanganidan keyin 6 oy davomida, biroq ularning davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng 1 yildan ko'p bo'lmagan davrda, yagona ijtimoiy to'lovni, ushbu to'lovlarning tasdiqlangan eng kam miqdorlarini hisobga olmagan holda, amalda bajarilgan ish hajmlaridan kelib chiqib to'laganlar	Prezidentning 9.12.2014 yildagi PF-4677-son Farmoniga ilovaning 4-bandi bilan o'zgartirishlar kiritildi, ularga muvofiq yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 6 oy davomida, agar mazkur muddatda ular o'z ehtiyojlari uchun ob'ektlar qurgan taqdirda, qurib bitkazilgan ob'ektni qabul qilish hujjati tasdiqlangan sanadan boshlab 6 oy o'tgungacha, biroq ularning davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng 1 yildan ko'p bo'lmagan davrda yagona ijtimoiy to'lovlarni ushbu to'lovlarning tasdiqlangan eng kam miqdorlarini hisobga olmagan holda to'laydilar	YaITni eng kam miqdorni hisobga olgan holda to'lash tartibi Yagona ijtimoiy to'lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom (MV va DSQning AV tomonidan 13.04.2010 yilda 2095-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan) bilan tartibga solinadi